

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI

AVEZOVA IRODA RAXIMOVNANING

5141000 – Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: «FORTEPIANO SAN'ATI TARIXI VA UNING BO'LG'USI
PIANINOKILAR BILIM DOIRALARINI KENGAYTIRISHDAGI
AHAMIYATI»

ILMIY RAHBAR:

KATTA O'QITUVCHI
JUMANIYOZOV HAMRO

URGANCH 2013 YIL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

«FORTEPIANO SAN'ATI TARIXI VA UNING BO'LG'USI PIANINOKHILAR
BILIM DOIRALARINI KENGAYTIRISHDAGI AHAMIYATI»

Bajaruvchi:

Avezova Iroda Raximovna

Rahbar:

katta o'qituvchi Jumaniyozov Hamro

Urganch shahri 2013 - yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI
BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR
REJASI:

- 1.Talaba Avezova Iroda Raximovna ga Universitet rektorining «_____» - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun «Fortepiano san'ati tarixi va uning bo'lg'usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati» mavzusi tasdiqlangan.
- 2.Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Jumaniyozov Hamro bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
- 3.Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.
- 4.Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar Alekseev A. Istoriya fortepiannogo iskusstva. Alekseev A. Klavirnoe iskusstvo. Livanova T. Istoriya Zapadnoevropeyskoy muziki do 1789 goda. Druskin M. Klavirnaya muzika. Bakeeva N. Organ. «O'zbek xalq musiqa tarixi» kabilardan olinadi.
- 5.Bitiruv malakaviy ishga prezentatsiya va rasmlar ilova qilinadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2012-yil. oktabr
2	Bitiruv - malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2012- yil. dekabr
3	Mavzu bo`yicha manba yig`ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o`rganish	2013-yil. yanvar
4	O`rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2013- yil. yanvar
5	Yig`ilgan materiallarni sistemalashtirish,	2013- yil. fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o`rganish	2013- yil. fevral
7	To`plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2013- yil. mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2013- yil. mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2013- yil. aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2013- yil. aprel
11	Adabiyotlar ro`yxatini yozish	2013- yil .aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2013- yil. may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2013- yil. may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

katta o`qituvchi Jumaniyozov Hamro

Bajaruvchi talaba:

Avezova Iroda Raximovna

2013 yil «_____» _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2013 yil tasdiqlandi

(«_____» - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi Nurmatova M. A

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH MEZONLARI

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning «Kirish» qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	«Xulosa» qismida ilmiy - nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti 5141000 «Musika ta'limi» yo'nalishining bitiruvchisi Avezova Iroda Raximovnaning «Fortepiano san'ati tarixi va uning bo'lg'usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati» mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____» 2013 yil «_____» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning «Kirish» qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	«Xulosa» qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. «Fortepiano san'ati tarixi va uning bo'lg'usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati» mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2013 yil «_____» _____

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi - sharifi: Avezova Iroda Raximovna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: «Fortepiano san'ati tarixi va uning bo'lg'usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati»

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi - sharifi katta o'qituvchi Jumaniyozov Hamro

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «_____» _____da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch shahar R. Allaberganov nomli 2 - sonli _____bolalar _____musiqa _____va _____san'at _____maktabi _____direktori Matniyazova S. A. tayinlandi.

Kafedra mudiri: _____katta o'qituvchi Nurmatova M. A.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: _____dots. D. Q. G'ayipov.

«Tasdiqlayman»

fakultet dekani _____

dots. D. Q. G` ayipov

«___»_____2013 - y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI 5141000 «MUSIQA TA'LIMI»
YO`NALISHI. BAKALAVR
BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Avezova Iroda Raximovna

1. Ishning mavzusi: «Fortepiano san'ati tarixi va uning bo`lg`usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati»

«___»_____2013 yil universitet rektorining_____sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “___”_____2013 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati

a) 1. Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T., 2007 y.

b) Abert G. V. A. Motsart. M., 1983-85

v) Alekseev A. Istoriya fortepiannogo iskusstva. M., 1967

g) Bakeeva N. Organ. M., 1977

d) Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent. 2008.

e) O`zbekiston davlat konservatoriyasi sayti

4. Ishning maqsadi: Organ - klavir san'ati va janrlari, organ va klavirlarning paydo bo`lish tarixi, organ - klavir musiqasi ijrochilik amaliyoti, tablatura va janrlari, klavishli cholg`u asboblari turlari, XVI - XVII asrlar milliy organ - klavir maktablari, I. S. Baxning klavir ijodiyoti, XVIII - XIX asr fortepiano san'ati, V. A. Motsart, L. Van Betxovenlarning fortepiano san'ati, XVIII oxiri - XIX asr birinchi yarmi fortepiano san'ati, O`zbekistonda fortepano san'atining rivoji kabi masalalarning bo`lg`usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati

o`rganish

5. Chizma materiallar ro`yxati:_____

6. Maslahatchilar:_____

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch shahar R. Allaberganov nomli 2 - sonli bolalar musiqa va san'at maktabi direktori Matniyazova S.A.

7.Ilmiy rahbar:

katta o`qituvchi Jumaniozov Hamro

BMI bajaruvchi talaba:

Avezova Iroda Raximovna

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi Nurmatova M.A.

«Fortepiano san'ati tarixi va uning bo'lg'usi pianinochilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati»

REJA

Kirish

I - bob. Organ - klavir san'ati va janrlari

1.1-§ Organ va klavirlarning paydo bo'lish tarixi

a) Organ - klavir musiqasi ijrochilik amaliyoti, tablatura va janrlari

b) Klavishli cholg'u asboblari turlari

1.2-§ XVI - XVII asrlar milliy organ - klavir maktablari

1.3 -§ I. S. Baxning klavir ijodiyoti

II - bob. XVIII - XIX asr fortepiano san'ati

2.1-§ V. A. Motsart, L. Van Betxovenlarning fortepiano san'ati

2.2-§ XVIII oxiri - XIX asr birinchi yarmi fortepiano san'ati

2.3-§ O'zbekistonda fortepano san'atining rivoji

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

Har xil ta'lim - tarbiya tizimlarining zamonaviy modernizatsiyalash (yangilanish) jarayoni har bir mamlakat milliy - madaniy xususiyatlari, pedagogik tajribalarining ilg'or yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liqligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishishi va uning jahon ta'lim muhitiga kirishi, ta'lim muassasalari faoliyatida ikkita yo'nalishni ham o'zlashtirish, nazariy jihatdan ishlab chiqish va amaliy jihatdan tadbqiq qilish imkonini beradi.

Cholg'u ijrochiligi musiqa san'ati sohasida eng ommalashgan turlardandir. Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg'u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg'ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg'usi o'zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o'rin tutadi.

Fortepiano cholg'usining uzoq ajdodi - organning paydo bo'lish tarixi eramizdan oldingi III asrlarga borib taqaladi. undan keyin klavir, klavikord, klavitsimbal, klavesin kabi klavishli cholg'ular paydo bo'lgan. Fortepiano cholg'usining o'zi esa Evropa mamlakatlarida XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida paydo bo'ldi.

Fortepiano cholg'usi O'zbekistonga XX asr boshlarida kirib kelgan va shu asr birinchi yarmi oxiridan boshlab mamlakatimizda fortepiano san'ati ommaviy ravishda jadal rivojlana boshlagan.

1936 yilda Toshkent davlat konservatoriyasining (hozirda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi) ochilishi na faqat O'zbekiston, balki, Markaziy Osiyo va Qozg'iston mamlakatlari madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi, chunki Toshkent konservatoriyasi uzoq yillar davomida butun Markaziy Osiyo davlatlariga oliy malakali musiqachilarni tayyorlab keldi. Toshkent konservatoriyasining fortepiano fakulteti birinchilardan bo'lib ochilgan edi. Uning pedagogik va ijrochilik tamoillari Moskva va Leningrad konservatoriyalarining fortepiano ijrochiligi maktablarining eng yaxshi an'analari ta'sirida shakllandi. Bu ta'sir mezonini ko'p jihatdan shu kafedrada turli davrlarda faoliyat olib borgan ana shu maktablar pedagoglari belgilab bergan edilar.

1960 yillarda respublikaning viloyat markazlari (Andijon, Jizzax, Guliston, Bekobod, Qarshi, Termiz, Urganch, Nukus) da ko'p sonli musiqa bilim yurtlari ochila boshlaydi.

Hozirgi davrda oliy ta'lim dargohlari o'quv dasturiga «Cholg'u ijrochiligi», Pedagogika kollejlari musiqa yo'nalishi, musiqa va san'at kollejlari va bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv dasturlariga «Fortepiano sinfi» mashg'ulotlari kiritilgan. «Cholg'u ijrochiligi» va «Fortepiano sinfi» fani kasbiy tayyorgarlikni nazariy hamda amaliy mustahkamlaydigan tarkibiy qism hisoblanadi. Fanning asosiy vazifasi o'quvchilarga o'z ishiga ongli munosabatda bo'lish, shu kasbiga qiziqish uyg'otish, ijrochilik tajribalarini umumlashtira olish, uslubiy adabiyot va o'quv qo'llanmalar bilan ishlay olish, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv repertuarlarini o'zlashtirish kabi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bu mashg'ulotlarda talaba - o'quvchilar o'zbek kompozitorlarining asarlari bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlar kompozitorlarining turli janrlarda yaratgan asarlarini ham o'rganadilar va ijro qiladilar. Bo'lg'usi pianinoning kasbiy tomonidan rivojlanishidagi muhim tomonlaridan biri cholg'u asbobida ijro qilish jarayonida shakllanadi. Shu bilan bir paytda o'zi o'rganayotgan cholg'u asbobi va uning kelib chiqish tarixi haqida etarli darajada ma'lumotlarga ega bo'lish juda muhimdir

Afsuski, oliy ta'lim dargohlari, pedagogika kollejlari musiqa yo'nalishida, musiqa va san'at kollejlari va bolalar musiqa va san'at maktablari talaba - o'quvchilari klavir, klavikord, klavitsimbal, klavesin va fortepiano cholg'ularining kelib chiqish tarixi haqida ko'pchilik hollarda butunlay ma'lumotlarga ega emaslar. Shu sababli oliy ta'lim dargohlari, pedagogika kollejlari musiqa yo'nalishida, musiqa va san'at kollejlari va bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari oldida fortepiano san'ati tarixi haqida ma'lumotlar berishning dolzarbligi yanada ortadi.

Shuning uchun ham musiqa dargohlaridagi xohlagan biron — bir mutaxassislik o'qituvchisi, dastavval o'qituvchi, ya'ni musiqa va tanlangan cholg'u asbobini, uning kelib chiqish tarixini tushuntiruvchi va uning bilimdoni bo'lishi kerak.

Shunday qilib, mavzuning yangiligi va bu mavzu kam o`rganilganligini e`tiborga olib, bitiruv - malakaviy ish mavzusini: «Fortepiano san`ati tarixi va uning bo`lg`usi pianinotchilar bilim doiralarini kengaytirishdagi ahamiyati» deb oldik.

Tadqiqot maqsadi: Organ, klavir va fortepiano cholg`ularining paydo bo`lish tarixini o`rganish

Tadqiqot ob`ekti: Organ, klavir va fortepiano tarixi

Tadqiqot predmeti Organ, klavir va fortepiano cholg`ulari

Tadqiqot vazifalari:

1. XVII asrlar milliy organ - klavir maktablarini o`rganish
2. I. S. Baxning klavir ijodini o`rganish
3. V. A. Motsart. L. Van Betxovenlarning fortepiano san`atini o`rganish.
4. XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi yarmi fortepiano san`atini o`rganish
5. O`zbekistonda fortepiano san`atining paydo bo`lish tarixini o`rganish

Tadqiqot metodlari:

1. Taxlil va sintez
2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni o`rganish

Alekseev A. Istoriya fortepiannogo iskusstva. Alekseev A. Klavirnoe iskusstvo.
Livanova T. Istoriya Zapadnoevropeyskoy muziki do 1789 goda. Druskin M. Klavirnaya muzika. Bakeeva N. Organ. «O`zbek xalq musiqa tarixi» Internet.

3. Ma`lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash
4. (Pedagogik kuzatish)

Taxlil sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o`rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g`oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi. Musiqa tarixi, musiqashunoslar tadqiqotlari, adabiyot va manbalarni o`rganish orqali skripka, klarnet, truba, akkordeon va fortepiano kabi boshqa evropa musiqa cholg`ulari paydo bo`lishi tarixiy jarayonini ilmiy jihatdan asosli tarzda taxlil qilish mumkin. Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g`oya va fikrlar mazmuni maxsus adabiyotlarda o`z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o`rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi. Pedagogik kuzatish uslubi vo-sitasida musiqiy ta`lim jarayoniga talabalar musiqasining tadbqiq qilish xususiyatlari o`rganiladi.

I bob Organ - klavir san'ati va janrlari

1.1. Organ va klavirlarning paydo bo`lish tarixi

Organ. Organning eng qadimiy ajdodi Aleksandriyada suv organi deb atalgan, eramizdan oldingi III asrda yashagan yunon injeneri Ktecibi yaratgan qadimiy klavishli musiqa asbob - gidravlos (yunoncha gidr – suv, avlos - trubka) – cholg`u hisoblanadi. Cholg`u asbobi bu nomni suv oqimining turubalarga nasos orqali haydalayotgan havo bosimini tutib turishida qo`llanilganligi sababli olgan.

Gidravlosda klavishlar bo`lmagan va trubalarga (quvur) ga havo oqimini ochib beruvchi moslama – dastak (richag) – suriluvchi qopqoqlardan (zadvijka) lardan iborat bo`lgan.

Gidravlosning suriluvchi qopqoq (zadvijka)lariga ulanadigan klavishli mexanizmni o`ylab topgan rimlik injener Mark Vetruiy (er.oldingi I asr) hisoblanadi. 1931 yilda qadimiy rim shahri Akvinkum (Budapesht yonida, Vengriya) qazilmalaridan eramizdan oldingi 228 yil yilga taalluqli gidravlosga o`xshash, to`rtta ruh quvurli asbob qoldiqlari topilgan.¹

Gidravlos Qadimiy Rimda dunyoviy musiqa cholg`usi sifatida qo`llanilgan. U har xil saroy marosimlarida, sirk arenalarida yangrab turgan. Gidravlosning eng yaxshi ijrochilarni aniqlash uchun musobaqalar o`tkazilib turilgan. Unda hatto rim imperatorlari ham qatnashganlar. Ushbu cholg`u asboblarini Rim zodogonlari o`zlarining qasr va saroylari uchun sotib olganlar.

Eramizning V asrgacha qo`llanib kelingan gidravlos asta - sekin quvurlarga uzatilayotgan havo oqimi mex vositasida haydaladigan pnevmatik organ tomonidan siqib chiqarila boshlandi.

¹Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

Ana shunday organlar haqidagi birinchi ma'lumotlar asrimizning II - IV asrlariga tegishlidir. Organ ilk O'rta asr olimlari, rimlik filosof Kassiodor (tax. 490 - 595) ning («Traktat o naukax i iskusstvax»), ispan (Sevilyalik) Isidorning (500 - 640) («Etilogiya») traktatlari va boshqalar ishlarida tez - tez tilga olinadi.²

Organ IV asrdan boshlab Vizantiyada asosiy dunyoviy cholg'uga aylanadi. Oltin suvi, fil suyagi va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan organlar imperatorlarning har xil marosimlarida jo'r bo'lgan ziyofatlarda va ippodromlarda signallar berib turgan.

Vizantiya organlari IX - X asrlarda yozib qoldirilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'zining ohangdorligi bilan ajralib, bo'layotgan marosimlarga yorqinlik va bayramona kayfiyat baxsh etgan. Vizantiya cherkovlaridagi ibodatlarda organ qo'llashga ruxsat qilinmagan.

Rim papasi buyrug'i bilan cherkovlarda organni qo'llash ta'qiqlagan. 660 yilda G'arbiy cherkov organni cherkovda qo'llashga ruxsat berdi. VII asrdan boshlab Angliyada organ paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. (Episkop Aldxaym 640 - 704 yillar atrofi) qo'lyozmalarida organning «qudratli ovozi» esga olinadi. VIII - IX asrlarda organlarni boy - badavlat odamlarga sovg'a sifatida Vizantiyadan olib keta boshlaydilar.

980 yil Uinchestr (Angliya) soborida 400 quvur (truba) 26 ta bosqon (mex)ga ega va ularni kalkantlar – («bosqon bosuvchilar») boshqaruvchi katta organ quriladi.

Organda har birida 20 ta klavishli ikkita manual (klaviatura) mavjud bo'lgan. XI asr oxiriga kelib organlar G'arbiy Evropada tarqalgan va cherkov xizmatining bir qismiga aylanib ulgurgan edi.

XIV asrdan boshlab organlarda mustaqil pedal klaviaturasi paydo bo'ladi. (Uni Lui Van Valbeke (131 yil vafot etgan) ixtiro qilgan deb hisoblanadi. O'rta asrlarda katta organlar bilan bir paytda diapazonni ikki oktavagacha bo'lgan bir klaviaturali kichik, portativ (lot. - «olib yurmoq») organlar ham paydo bo'ladi. Bu metall (ba'zan yog'och) trubali organlarni ijro paytida tizza ustida tutish, yoki elkaga tasma orqali

²Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

osib, o'ng qo'l bilan klaviaturada o'ynab, chap qo'l bilan bosqonni(mexni) yuritish mumkin edi.

Portativ organning boshqa turi - regal bo'lib, uning trubalari ichida havoni tebratuvchi tilchalar joylashgan bo'lgan. Undan VIII asrda keng foydalanilgan. Portativ organlar ko'pgina sayyor musiqachilar: gistrionlar, jonglerlar, minstrelilarning asosiy cholg'ulari qatoridan o'rin olgan.

Dastlabki organ klaviaturalari diatonik bo'lib, S (Do) tovushidan boshlanib, bitta xromatik V (si - bemol) tovushiga ega edi. Klaviaturalar diapozoni XIX asrgacha uch oktavadan oshmagan.

XIII - XIV asrlarda katta organlar klavishlari o'lchami eniga 8 - 9 sm, uzuniga 30 sm. ga etgan. Shuning uchun ham ularda ijro qilish uchun katta kuch talab qilingan (ular musht va bilaklar bilan ijro qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud). Portativlar klaviaturasi esa aksincha shu darajada kichik bo'lib amaliyotda ijro paytida katta barmoqni ishlatishga yo'l qo'yilmagan. Birinchi klavirlar ana shunday klaviatura merosxo'rlaridir. Organing tuzilish tamoyillari ancha murakkabdir. U bir qancha asosiy qismlar: trubalar (ular 30 mingdan oshgan) havo haydovchi mexanizm (bosqon (mex) va havo o'tkazgichlar), organchi va klaviatura joylashadigan boshqarish stoli yoki manuallar (lot.manus - qo'l) va pedallardan (lot. pes, peolus - oyoq) iborat bo'lgan. Organchining o'ng va chap tomonida registrnlarni (bir xil tembr trubalari to'plamini) o'chirib yoquvchi ya'ni, maxsus qutilarda yig'ilgan havoni ochib beruvchi moslamalar – dastak va tugmachalar joylashgan. Klavishlarni bosish natijasida - reyka, g'ildiraklar, richaglar va boshqalardan iborat uzatmalar – traktura - mexanik tizimi ishga tushgan.

Bu tizimdagi eng oxirgi bo'g'im, ushbu registr trubasiga havo jo'natuvchi klapandir. Havoni bosim ostida yuboruvchi trubkachali (konduktli) tizimli - pnevmatik trakturali organlar ham mavjud bo'lgan. Pnevmatik traktura hali XIX asrda yaratilgan bo'lib, uning asosiy kamchiligi - tovushning klavishlar bosilgandan ancha keyin eshutilishdir. Elektr trakturali organlarda klavishlar trubalarning elektroprovod tizimi bilan bog'liqdir. Pnevmatik trakturali organlarda kafedra organ korpusiga o'rnatilgan va u tebranmasdir. Elektr trakturali organlarda kafedra

xohlagan joyda qo'yilishi mumkin bo'lib, u organ bilan elektr simlari orqali bog'langandir. Bunday organ klavishlari ancha engil bosiladi va organchi trubalar bilan «jonli» muloqotda bo'la olmaydi.³ Shuning uchun ham zamonaviy organsozlikda eng muvaffaqiyatli variant, klaviaturada o'ynash uchun mexanik traktura va registrlarning elektron ulanishi qo'shilmasidir. Ma'lum bir bosim ostida buklama bosqon (mex)lardan hosil bo'layotgan trubalardagi ovoz kuchiga klavishlar ta'sir qilmaydi.

XIX asr o'rtalarigacha bosqon (mex) larga havo qo'lda - nasoslar orqali yuborilgan. Zamonaviy organlarda bu maqsadda elektromotorlardan foydalaniladi. Bosqon (mex) lardan kelayotgan havo yog'och havo o'tkazgichlar orqali ustki qopqog'ida teshikchalar bo'lgan yog'och qutilar - vinlidlarga - taqsimlagich - — bo'lgich tizimiga o'tadi. Yog'och quti teshikchalarida organ trubalari «oyoqchalari» joylashadi. Vinlidlarda havo bosim ostida saqlanadi. Trubalar tayyorlanish materialiga qarab, metal yog'och, tovush hosil qilish usuliga ko'ra esa labial va tilli turlarga bo'linadi. Labial trubalar (lot. labium - «lab») ancha ko'p sonli bo'lib, ular zamonaviy organlarda qo'rg'oshin, qalay qo'shilmasi, sof qalay, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadi. Ushbu trubalarda «oyoqcha» deb ataladigan joylar mavjud bo'lib, uning pastki tugallangan joyidan havo oqimi o'tadi va trubaning tashqi qismida «og'izcha» deb ataladigan tirqish bo'lib, unda ikkita ustki va pastki «lablar» yaqqol ko'rinib turadi. Havo oqimi dastavval pastga urilib, keyin esa «og'izcha» balandligidagi yuqorigi labga tor bo'shliqdan urilib o'tib, trubadagi havoni tebranishga majbur qiladi va natijada tovush hosil bo'ladi. Labial trubalar ochiq va yopiq, keng va tor, tsilindrik, konussimon va kvadratsimon shakllarda bo'lishi mumkin bo'lib, ular tembri ana shunga bog'liqdir. Tilli trubalarda ovoz qo'zg'atuvchi moslama, havo bosimi ta'sirida tebranuvchi yumshoq va qayishqoq mis tilchadir. Tilli trubaning yuqorigi (olinuvchi) va bir tomoni kengayib boruvchi qismi - rastrub tovushni kuchaytiruvchi rezonatoridir. Trubadagi tilcha qanchalik uzun bo'lsa, ovoz shunchalik pastdir. Registr ya'ni — bir xil tembrdagi trubalar to'plami, bir xil materialdan tayyorlandi. Uning trubasi bir xil shakl va menzuraga - truba diametri va uzunligi nisbatlariga egadir. Truba uzunligi fut (tax. 30 sm) da o'lchanadi

va bir necha mm dan 10 - 11 metrgacha boradi. Eng uzun trubasi 8 metr bo'lgan registrlar nota yozuvi bo'yicha yangraydi. 4 - futli registrlar bir oktava yuqori, 2 futli registrlar ikki oktava yuqori, 16 futli va 32 futli registrlar bir va ikki oktava past yangraydi. Asos qilib manuallarda, 8, pedalda 16 registrlarni olish qabul qilingan.

Trubalar odatda vertikal joylashgandir, lekin trubalari gorizontal joylashib, kengaygan tomoni bilan tinglovchilarga qarab turadigan organlar ham bo'lib, ular ko'proq Ispaniyada uchraydi. Registrlar oilalarga bo'linadi. Ochiq labial, ko'proq metaldan bo'lgan tor menzurali trubalar ayniqsa yorqin, jarangdor yangrab, ular printsiptiallar deb ataladi va organ ohangining poydevorini hosil qiladi. Ba'zi registrlarni tuzilishiga qarab (masalan «baland fleyta» - Hohflote) boshqalarini cholg'u asboblari eslatuvchi tembriga (truba, kornet) yoki hatto inson ovozigacha o'xshatib (vox numma) deb farqlaydilar. Registrlarning ko'pgina nomlari XIV asrdan beri mavjuddir. Organlarda asosiy registrlardan tashqari, mikstur va alikvotlar oilalari mavjud bo'lib, ular asosiy registrlar bilan qo'llanilib, cholg'u asbobining oberton spektrini boyitadi. Alikvotlar (lot. - «bir nechta») obertonlardan bittasini, masalan, kvintani beradi. Mikstura (lot. - «qo'shilish», «aralashtirish») bitta asosiy tovush yoki akkordning bir qancha tovushlardan iborat obertonlarini beradi va katta miksturalarda 7 ta obertongacha bo'ladi.

Organlarda bir - biri ustida terrassasimon joylashgan 1 dan 7 gacha manuallar bo'ladi (Atlantik siti, AQSh dagi organ). Ularda klavishlar soni 60 - 62 (oktavalar S dan S 4 gacha 5 oktava), pedal klaviaturasi esa (S dan d 2 gacha 2, 2/3 oktavagacha) 32 klavishdan iborat. Har bir pedal va manuallarga registrlarning ma'lum guruhlariga taqsimlangandir. Asosiy manualda (odatda bu eng pastki manual) – Hauptwerke, ijro qilinganda eng yorqin va qudratli registrlar yangraydi. Yuqorida joylashgan manuallar esa pastroq yangraydi. Registr va organ hajmi bir - biriga bog'liqdir. Kichkina organ 10 gacha, katta organ esa bir nechta yuz registrlarga egadir. Organchi har xil manuallar va pedallar vositasida kopulyatsiya (lot. –«qo'shish»)³ mexanizmini ishga tushirish orqali registrlarni har xil kombinatsiyalar yordamida bir - biriga ulash

³Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

imkoniga ega. Bu mexanizm XIV asrda Frantsiyada yaratilgan.

Ko'p organlarda jalyuzi – shviller deb ataluvchi moslama bo'lib, ular qopqoq (zaslonka) larni ochib yopib turish uchun xizmat qiladi, ular orqasida esa ayrim registrlarning trubalari joylashgan bo'lib, ular ovozni kuchaytirish yoki pasaytirish effektini beradi. Bu mexanizm Angliyada 1670 yilda yaratildi.

XIX asrda esa Walze mexanizmi yaratildi (uni ishga tushirish uchun organchi oyog'i bilan o'ziga xos o'qni aylantirar edi). Bu mexanizm ma'lum bir guruh orqasidan ikkinchi guruhni to'liq tutti gacha yangrashga majbur qilar edi.

O'qni boshqa tomonga aylantirish esa barcha registrlarni o'chirib, *diminiendo* ni hosil qilar edi. Har bir organ o'zining ovozlar diapozitsiyasi registrlariga ega edi. Shuning uchun ham organchi registrlar qo'shilishini o'zi tanlar (kompozitor odatda registrlashtirishni ko'rsatmas edi) va registr rejasini tuzar edi. Ijro paytida bitta yoki ikkita assistent registrlarni almashtirib turar, ikkinchisi esa boshqa yordamchi operatsiyalarni bajarar edi. Organ musiqasini yozish uchun XVP asrdan boshlab, uchta nota yo'lidan foydalanila boshlandi. Pastki yo'lda pedal partiyasi yoziladi.

a) Organ - klavir musiqasi ijrochilik amaliyoti, tablatura va janrlari

XVI asrda milliy musiqa maktablari shakllana boshlaydi. Organ bilan bir paytda klavir san'ati va u bilan jips bog'liq boshqa narsalar ham rivojlana boshladi. Klavirlar asosan itoatkor holatida bo'lib, ko'proq ulardan organchilarni tayyorlashda o'quv cholg'usi sifatida foydalanilar edi.

Klavirlarda organ musiqasi bilan bir paytda lyutiya musiqasi ham ijro qilina boshlaydi. Uni klavir bilan faktura oddiyligi va yangrash xarakteri (torlarni tirnab chalish) bog'lab turar edi.

XVI asrda ijrochilik san'atining rivojlanishida shu asrda keng rivojlangan nota nashr qilish katta rol o'ynadi. 1507 yil Venetsiyada tarixda birinchi marta italyan nota nashrchisi Ottaviano dei Petrucci (1460 - 1529) - ning lyutnya bosma tablaturasi paydo bo'ladi. Venetsiyada klavir musiqasining birinchi to'plamlari Andrea Antiko (1539 - 1480) ning "Frottole in tabulatae da suonargani" («Frottole intabulirovannie dlya igri na organe») paydo bo'ladi.

1512 yil Mayntse shahrida nemis P. Shyofferning nashrlarida A. Shlikning («Tabulaturen etlicher lobgesan») tablaturasi nashr qilinadi. 1528 - 42 yillari P'er Attenyanning (1494 - 1551 yil) har xil janrlardagi 100 ta musiqa to'plami (asosan shanson) nashrdan chiqdi, unda klavir musiqasi ham bor edi.⁴

XVI asr oxirigacha musiqa madaniyatining xarakterli belgilaridan biri, musiqachining hayron qolarli darajadagi har tamonligidir. Shu davrlarda musiqachilar kompozitor, ijrochi, pedagoglarga bo'linmagan edi. Qoidaga binoan musiqachilar bir emas, balki bir nechta cholg'u asbobida ijro qilishni egallagan edilar. Bu davrda ijrochi avtor va tinglovchi o'rtasida vositachi deb qaralmas edi. O'sha davr qarashlariga ko'ra ijro musiqa ijodiyoti bilan bir butun bo'lib, u bilan organik birlikni saqlashi kerak edi. Bu sintez ijrochilik san'ati asosi bo'lgan badiha (improvizatsiya) da amalga oshirilar edi. Improvizatsiya ildizlari qadim - qadim davrlarga borib taqaladi. Improvizatsiya qilish san'ati xalq ichida hozirgi davrgacha yashamoqda. Xalq improvizatsiyasi professional musiqaga o'tib, asta - sekin juda rivojlangan va takomillashgan professional ko'lamdagi san'atga aylandi. O'sha davrlarda organ va klavirda improvizatsiya qilish tez - tez qo'llanib turar edi. Agar ijrochi yakka ijro qilayotgan bo'lsa, birinchi navbatda undan improvizatsiya qilish talab qilinir, berilgan mavzuga ustalik bilan improvizatsiya qilish, ijrochilikning oliy cho'qqisi hisoblanar edi. Oldingi davrlarda akkomponement ham improvizatsiyaning o'ziga xos turi hisoblanar va improvizatsiyachiga oliy tipdagi kompozitor sifatida qaralar edi. Improvizatsiya qilishga o'rgatish, ijod qilish va musiqa nazariyasi bilan jips bog'liq edi. O'quvchi (shogird) xoral improvizatsiyasidan keyin basdagi gammalarni garmoniyalashni kichik fantaziya sifatida ko'rsatishi kerak edi. Cholg'u asbobida faqat ohangni ko'rsatib qolmasdan, uni bezaklari bilan ijro qilish mahorati ijrochining improvizatsiya ko'nikmalari (malakalari) - ning o'ziga xosligini baholash mezonidir edi. Erkin ornamentika (bezak) - lashtirishning ikki shaklli dimunatsiya va kolorlashtirish ishlab chiqila boshlandi va reglamentlashtirildi.

Diminutsiya (lot - «qisqartirish», «kamaytirish») – uzun notalarning asosiy

⁴ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

cho`zimni yanada mayda bo`laklarga bo`lish yo`li bilan ularni almashtirish demakdir. Ushbu holda kuyning tayanch tovushlari saqlanishi zarur bo`lgan. Formulalari asta - sekin shakllanayotgan va XV asr risolalarida paydo bo`layotgan bezaklar flores (lot.- «gullar») deb atalar edi.⁵

Ana shunday bezaklashtirish amaliyoti ovoz yuritishning mayinligi va kuyning ifodaviylik bilan to`ldirilishiga olib kelib, prelyudiya, tokkata va shunga o`xshash janrlarning faktura - kompozitsion asosini yaratdi.

Kolorlashtirish – (lot. «bo`yash», «bezash») kuydagi asosiy notalarni mayda bo`lakli notalar bilan bezash.

Klavir – organ musiqasi maxsus yozuv belgisi tablatura (lot.- tabula –«taxta», «jadval») yordamida yozilgan. Lyutiya, arfa va viola cholg`usi oilalari ijrochilari turli xil tablaturalardan foydalanganlar. Tablatura asosi – musiqa yozish uchun (notadan tashqari) har xil belgilar - harf, raqam va boshqalarni qo`llashdir.

Tablatura notatsiya shakli va qoidasi cholg`u asbobida ijro qilish texnikasiga bog`liqdir. Masalan, lyutnya tablaturalarida ijrochi qaysi ladda qaysi pardani bosish kerakligi ko`rsatilar edi. Ritmni o`rgatish uchun tablaturalarda menzural notatsiya (bayroqchali nota shtillari) dan foydalanilgan. Organ tablaturasining ikki turi: nemis va ispan tablaturalari mavjud bo`lgan. Nemis tablaturasini ikki: eski va yangi tablaturaga bo`lish mumkin. Taxminan XVI asr o`rtalarigacha qo`llanilgan eski nemis organ tablaturasida pastki ovozlar harflar bilan, yuqorigi ovozlar esa nota yo`lida menzural notalar bilan belgilangan.

Yangi nemis tablaturasida (tax. 1550 - 1700 yillar qo`llanilgan) barcha tovushlar ustiga ritm belgisi qo`yilgan harflar bilan belgilangan. Ilk ispan tablaturasida (X. Bermudo) ovozlarni ko`rsatuvchi gorizontal chiziqlarda klaviatura tovushlari oldindan nomerlangan raqamlar joylashtirilgan. Keyinroq ispan tablaturasida ettita oq klavishlar (f=1 g=2; a=3 dan va h.k.) nomerlashtirilgan, boshqa oktavalarda esa qo`shimcha belgilar (masalan, katta oktava A notasi 3 s (sirtmoqli g 2)bilan belgilangan va yuqorisiga ritm belgilari qo`yilgan.

⁵Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

XV asrda ko'p ovozli vokal musiqasi tamoyillari klavir musiqasida rivojlanib kakricherkar, kantsona, fantaziya kabi janrlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. XVI oxirida paydo bo'lgan prelyudiya va paydo bo'layotgan intonatsiya, tokkata kabi p'esalar sof cholg'u - klavir musiqasi xususiyatlariga ega bo'la boshladilar. Raqs janrlari bir tomondan polifonik shakllar bilan bog'liqlikni saqlagan holda, ikkinchi tomondan gomofonlashib, yuqorigi tovush ustuvorligini saqlagan holda oddiy akkordli faktura bilan xarakterlanadi. Musiqiy tafakkurlash davriga asos bo'lib xizmat qilgan musiqa materialining variatsion rivoji xususiy variatsion janr shakllanishiga olib keldi.

Richerkar (it. «izlash») italyan F. Spinachinoning lyutnya tablaturasida uchraydi. Prelyudiya planidagi p'esalar dastlab shu termin (ibora) bilan belgilangan va lyutnya (Ispaniyada esa tirnama viuela) ning sozini aniqlashtirish uchun qo'llanilgan. Shu bilan bir paytda improvizatsion kadentsiyalar bilan bo'lingan bir nechta bo'limlardan tashkil topgan fakturasi bo'yicha motetga yaqin polifonik richerkar paydo bo'la boshlaydi. Ispaniya va Portugaliyada richerkar terminiga t'ento to'g'ri keladi.

Birinchi tipdagi dastlabki organ richerkarlari italyan Marko Antonino Kavattstsoni, richerkarning polifonik namunalari esa 1543 yilda uning o'g'li Jirolamo Kavattstsoni ijodida paydo bo'ladi.

Kantson – (lot. «qo'shiq», fr. «shanson»)) – dastlab frantsuz qo'shiqlarining qayta ishlanmasi canson alla francese bo'lib, keyinchalik gomofon bo'limli polifonik tuzilishidagi p'esaga aylangan kantsonaning ham ilk namunalarini 1523 yilda M. A. Kavattstsoni beradi.⁶

Fantaziya (yunon. «tasavvur», «xayol») shakllangan tuzilmalar andozalaridan farq qiluvchi p'esa janri. Fantaziya termini 1520 yillar birinchi marta nemislar X. Kotter, L. Kleber tablaturalarida(1520 yillar atrofi) uchraydi. Kotter fantaziyasi prelyudiya va fugadan iborat edi. Kleber p'esasi o'zining imitatsion bayoni bilan ajralib turadi. Angliyada fantaziya terminiga fensi so'zi to'g'ri keladi. Keyinchalik, imitatsion polifoniya qo'llanilishi va tematizmning kontsentratsiyalanishi bilan bir -

⁶Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

biriga yaqin bo'lgan bu janrlar fuganing yaratilishiga olib kelgan. Ko'p mavzuli kantsonalarning rivojlanishi kontsert grossoga olib keldi va kontsert grosso qismlarining o'ziga xoslashtirilishi natijasi esa ko'p qismli sonata paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

b) Klavishli cholg'u asboblari turlari

Klavirlar. Klavirlar deb tovush hosil qilishning har xil tamoyillariga asoslangan torli - klavishli cholg'u asboblari oilasiga aytiladi. Zarbli musiqa asboblari klavikord va fortepiano, tirnama cholg'ularga esa – klavish, chembalo, xarpsixord, verjinal va boshqa cholg'ular kiradi.

Torli – klavishli cholg'ularning rivojlanish tarixi psalterium (yunon -torlarni tirnash, urish) degan monoxorddan boshlanadi. Bu cholg'ular yog'och yoki temir qoziqchalarga tortilgan simli yassi korpusga ega bo'lib, ular qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Antik Gretsiyada musiqa nazariyasini o'rganish uchun yaratilgan musiqa asbobi - monoxordning paydo bo'lishi Pifagor (571 - 497) nomi bilan bog'lanadi. Monoxordning tarang tortilgan simlari ostida simlarni o'rtasidan bo'lib turuvchi suriluvchan taglik bo'lib, uni u yoq, bu yoqqa yuritib va torlarni maxsus plastinka plektr bilan tirnab, har xil balandlikdagi tovushlarni hosil qilish mumkin edi.

Monoxord O'rta asr xalq musiqachilari tomonidan qo'shiq va raqslarga jo'r bo'lishda keng qo'llanilgan. Cherkov maktablarida musiqaga o'qitishda foydalanilgan. Keyinchalik monoxord torlarini ko'paytirish va tagligini takomillashtirish yo'nalishida rivojlantirildi. (Gvido Aritinskiy (991 atrofi - 1033 yildan keyin) nota yo'li va solmizatsiya tizimi ixtirochisi).⁷

Torli - klavishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar XIII - XIV asrlarga taalluqlidir. Bu ma'lumotlarda yuqoridagi tilga olingan cholg'ularga qachon klavishlar qo'shilganligi haqida hech narsa deyilmaydi. O'sha davrlarda klavirlar turli manbalarda hamma vaqt ham aniq nomlar bilan tilga olinmaydi: klarixord (1210 yilda tilga olinadi), ekzakir, eshik'e, shaxtbrent, shekker, manikord va h. k.

⁷ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

Klavikord. Klavikord eng qadimiy klavishli - torli musiqa asbobi hisoblanadi. Klavikord soʻzi birinchi marta 1440 yilda Eberxardt Tsersnening «Pravili minnezinger» va gollandiyalik saroy tabibi (munajjimi, astronomi) Anri Anro (1466 vafot etgan) risolalarida tilga olinadi. Burgundiya qirolligi shahzodasi Filipp le Bon (Jon shahri) ning qoʻlyozmasida uch oktavali klavikordning bayoni beriladi (qoʻlyozma Parij shahridagi Milliy kutubxonada saqlanadi.)

Klavikord tuzilishi boʻyicha eng oddiy torli - klavishli musiqa asbobidir. Klavishning orqa uchida tangent (lot. «tegmoq») – uchi yapaloq metall sterjen mahkamlangan. Klavish bosilgan paytda tangent torni uradi va zarb berilgan joyga muvofiq har xil balandlikdagi tovushlar hosil qilinadi.

Pezarolik italyan ustasi Domeniko (1543) ning hozirgacha saqlangan eng qadimiy cholgʻusida (Leyptsig universiteti muz.) koʻp sonli sekunda, tertsiya va akkordlarni chalish mumkin emas. Ularni faqat arpedjio koʻrinishida chalish mumkin. Har bir klavish oʻzining tori yoki xori (toʻrtgacha) bilan ovoz chiqariladigan klavikordlar «erkin» klavikordlar deb atalgan va ular XVII asr oxirida tilga olinadi. «Erkin» klavikordlarning birinchi mashhur ustalari Brandenburglik Iogann Vilgelm Gruneberg (1700 yil.atr), Ansbaxlik Daniel Faber (1720 y. atr) lar edi.

Klavikordlar hajmi eng jajji (kitob shaklida) shaklidan tortib, to bir yarim metrgacha boʻlgan. Ikki manualli klavikordlar ham uchrab turgan va ularda ikkinchi manual uchun organdagi kabi pedal klaviaturasi qoʻllanilgan. Pedalli klavikord XV asrdan maʼlum boʻlgan. (Pragalik Paulus Paulirinus traktati). Dastlab klavikord simlari bir xil uzunlikda boʻlgan va bu sozlashni engillashtirgan, ular klaviaturaga parallel joylashgan. Keyinchalik esa torlar - simlar uzunligi oʻzgara boshlagan, ancha uzun va yoʻgʻon simlarni pastki registrda, ingichka va maydaroq simlarni esa yuqorigi registrda qoʻllay boshlaganlar. Bu esa tangentlarni ancha qulay joylashtirish uchun imkon yaratgan va cholgʻu tembrini boyitgan.

Dastlabki cholgʻular diapazoni ikki oktavadan (S dan d^2 yoki a^2 gacha) iborat boʻlgan boʻlsa, ular XVI asr oʻrtasiga borib standart – toʻrt oktava (S dan s^3 gacha) ga aylandi. XVII asrda esa besh oktavali (kontr oktava F dan f^3) gacha boʻlgan klavikordlar ham yasallgan. Klavikordlarning nisbatan kichik oʻlchamlari kichik

klavishlarni qo'llashga olib keldi, bu esa katta barmoq ishlatilmaydigan applikaturani qo'llashga sharoit yaratdi.

Klavitsimbal. Tirnama klavir - klavitsimbal haqida birinchi marta XIV asr oxirlarida tilga olinadi (Padui manbasi 1397). Ana shunday cholg'ular haqida batafsil ma'lumotlar oldin tilga olingan Anri Anro (1440) va (nemis nazariyachisi va kompozitori Sebastyan Virdung (1511 yildan keyin 1465 y. atrofi) Bazel shahrida chop qilingan traktatlarida keltiriladi.⁸ Bazel shahrida chop qilingan Virdungning traktati musiqiy cholg'ular haqidagi birinchi bosma qo'llanma bo'lib, hozir ham XVI asr musiqa amaliyotining hujjati sifatida o'z qadrini yo'qotmagan.

Klavitsimbal mexanizmi klavikorddan simlar (torlar) tangent vositasida emas balki plektr - qushlar pari (keyinchalik teri) bilan tirnash orqali chalinishi bilan farq qiladi. Shunday ovoz hosil qilish xususiyatiga ko'ra ular «parlangan» klavirlar nomini olgan. Plektr – sterjen, turtuvchi moslamaga o'rnatilgan bo'lib, klavish bosilgan paytda uning orqa tomoni bilan turtib chiqariladi. Turtuvchi moslamaning orqaga tomon harakatida esa endi tor tirnalmaydi. Tovush demper - kigiz parchasi bilan o'chiriladi. Bu musiqa asboblari ovoz kuchi o'zgarmas, ya'ni simlar uzunligi va ularning tortilishiga bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham uning yangrashini rang - barang qilish uchun cholg'u asbobida organdagi kabi bir nechta registr o'rnatilgan.

Kamonli cholg'u asboblari pitstsikatosiga o'xshash pasaytirilgan lyutnya registri barcha cholg'ularda bo'lishi tipik hol bo'lgan. Organdagi kabi 8 bilan belgilanuvchi har bir tor ovozini oktavaga ikkilantirish yo'li bilan boyitilgan. Ba'zan manuallar va registrnlarni almashtirish uchun 2 va 16 registrnlarni, bir nechta richaglarni qo'llaganlar. Cholg'ular shakli turlicha bo'lgan. Qanotsimon (hozirgi royalarga o'xshash) shaklli cholg'ularni Italiyada chembalo (yoki klavichembalo) Angliyada – xarpsixord, Frantsiyada – klavesin deb ataganlar. Bu cholg'ularning torlari klaviaturaga perpendikular holatda joylashgan va ularning turli xil uzunligi cholg'u shaklini belgilab bergan. Bu cholg'ularning boshqacha shakllari to'rtburchak, beshburchak, olti burchakli bo'lib, ularda torlar klaviaturaga nisbatan

⁸Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

parallel yoki diagonali bo'yicha joylashgan. Cholg'ular kattaligi oyoqlarga o'rnatilgan cholg'ulardan tortib, bir oktava yuqoriga sozlanadigan jajji cholg'ulargacha bo'lgan. Bunday cholg'ular Italiyada Spinet (Spina - «tikan, igna»), Frantsiyada - epinet, Angliyada – verjinel - «tayoqcha», «ustun», Germaniyada - shaxtbrett – (Schacht - «par», brett - «taxta») deb atalgan.⁹

Simlari vertikal (hozirgi pianinolardagi kabi) joylashgan cholg'ular klavitsiteriumlar deb ataladi. Eng oldinroq saqlanib qolgan chembalo 1521 yilda Rimda yasalgan.

Klavirlar XVIII asr ikkinchi yarmida fortepianoga o'rnini bo'shatib, XIX asr boshigacha keldilar. XIX asrda fortepianoga bo'lgan qiziqish kuchaydi va tez orada u ijrochilik amaliyotiga jadal kirib kela boshladi.

1.2. XVI - XVII asrlar milliy organ - klavir maktablari

XVI - XVII asrlar klavirchilik tarixida bir nechta italyan maktablari muhim rol o'ynaydi. Italiya organ - klavir san'atining birinchi davri Venetsiyada shakllangan yirik maktab bilan bog'liqdir.

Ko'pgina shaharlarda klavir maktablari paydo bo'la boshladi. Kastilonening «Pridvorniy» («Saroy xodimi») traktatida (1528 yil Florensiyada nashr qilingan) saroy a'zosi varaqdan o'qiy bilishi, kuylay olishi va cholg'u asbobida ijro qila bilishi zarur edi. Venetsiya maktabining markazi Muqaddas Mark ibodatxonasi edi.

Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra ko'ra Marko Antonio Kavatstsoni (1490 -1560) Venetsiya ibodatxonasi xonandasi bo'lgan, uning organ asarlari 1523 yilda bosilib chiqqan. To'plam «Richerkarlar motetlar, kantsonalar» deb nomlanib (1523 Venetsiya) 8 ta p'esadan iborat bo'lgan.

Kompozitor va organchilar Gabrieli, Andrea (1533 - 1585) va uning jiyani va o'quvchisi Jovanni venetsiya maktabining yirik vakillaridan hisoblanadi. A. Gabrielinig kantsonalari 1605 yilda ikkita daftarda nashr qilingan. Ularning ko'pchiligi frantsuzlar - Janeken, Kreykion vokal modellariga yaqindir.

⁹ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

Polifonik richerkarlar va tokkatalarning dastlabki namunalari 1552 – 64) yillar venetsiya ibodatxonasining organchisi Annibale Padavano (1527 -1575) qalamiga mansubdir. 1604 yilda uning «Tokkati i richerkeri dlya organa» to'plami nashr qilingan.

Jiralamo Freskobaldi (1583 - 1643) buyuk italyan organchisi edi. Uning kompozitor va ijrochi va sifatidagi shuhrati butun Evropa bo'ylab yoyildi. Freskobaldining organ asarlaridan birinchi tokkatalarini ko'rsatib o'tish zarur. Muallif tokkatalarning so'z boshida bu musiqa qonunlarini o'zlashtirish xarakterda ijro qilinishini va uni ritm jihatidan erkin ijro qilish va eng avvalo undan «hissiyotlarni» izlashni tavsiya qiladi.

XVI asr ispan – klavir maktabi kompozitor va ijrochi Antonio Kabezon (1510 - 1566) qiyofasida o'zining gullab yashnash cho'qqisiga chiqdi. U bir qator organ asarlar yaratdi. Evropaning Janubiy Sharqiy xalqlarida klavir san'ati yanada yaxshi rivojlandi. G'arbiy slavyan xalqlari – polyak va cheklar madaniyati ayniqsa boy va qadimiy tarixga ega edi. Polshada yirik musiqa markazlaridan biri dastlab Krakov, keyin XVII asr Varshava shaharlari bo'ldi. Musiqa san'ati saroy –kapellalarida, universitetlarda, boylar qasrlarida va cherkovlarda rivojlandi.

Polshada organ san'ati keng tarqaldi. Boshqa davlatlarda bo'lgani kabi bu san'at marosim (kult) an'analari bilan jips bog'langan edi. Polyak organchilari orasida ko'pgina taniqli cherkov kompozitorlari borligi xarakterlidir. Polyak xalq musiqasiga kelganda esa uning Evropa klavir madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri shak - shubhasiz kattadir. Bu polyak raqs musiqasining boshqa mamlakatlarda ham tarqalganida namoyon bo'ladi. Masalan, XVIII asrda polonez ancha mashhur bo'ldi. Biz uni I. S. Bax, V. F. Bax klavir asarlari orasida ham uchratamiz.

G'arbiy slavyan xalqlari ichidan cheklar klavir san'atiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular hali azal - azaldanoq o'zlarining o'ta musiqiyligi bilan shuhrat qozonganlar. Poytaxt Praga Chexiyaning madaniy markazi sifatida tanilgan edi. XVI asrda Gabsburg imperatorlari qarorgohi bo'lgan Praga shahri katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Imperator Rudolf II davrida (XVI oxiri XVII boshi) butun evropaga tanilgan saroy kappellasi o'zining gullab - yashnash cho'qqisiga chiqdi.

Pragada shu paytda Evropaning turli davlatlaridan kelgan taniqli musiqachilar – kompozitorlar, organchilar va klavirchilar faoliyat ko'rsatdilar.

Chex musiqa madaniyati rivojlanishida organchilar ichida ayniqsa chex organ - polifonik maktabining yaratuvchisi – Bogislav Chernogorskiy (1684 - 1742) ayniqsa alohida ajralib turadi.

Frantsiya va Angliyada ijtimoiy - ommaviy sharoitlarning yaxshiligi oqibatida dunyoviy cholg'u san'ati jadal rivojlandi. Frantsiyada raqs syuitasi, Angliyada variatsiyalar kabi kabi mantiqiy musiqa janrlari yaxshi rivojlandi.

Frantsuz klavesin maktabining asoschisi Shamboneer nomi bilan ko'proq ma'lum bo'lgan Jak Shampon (1602 - 1672) hisoblanadi. U musiqachilar oilasidan chiqqan bo'lib, saroyda klavesinchi, raqqos sifatida chiqar edi. Shambon'erning juda ko'p shogirdlari bo'lib, ular ichida kuperenlar avlodining birinchi vakili Lui Kuperendir.

Frantsuz lyutniyachisi va xonandasi Sen - Lamberning «Klavesinnie printsiipi» qo'llanmasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda ijrochilik amaliyoti va o'qitish metodlari bayon qilinadi.¹⁰

Ingliz klavir maktabi frantsuz klavir maktabidan ham oldinroq paydo bo'la boshlagan. Uning shakllanishi Angliyaning XVI asrda iqtisodiy va madaniy tomondan jadal rivojlanishi bilan bog'liqdir. Hali XVI asr boshlaridayoq Angliyada verjinel san'ati keng tarqalgan edi. Asr oxiri Shekspir davrida verjinelchilarning bir butun ijodiy maktabi paydo bo'ladi. Verjinelchilarning eng ko'zga ko'ringan vakillari Vilyam Byord (1543 - 1623), Djon Bull (1563 - 1628) va Orlando Gibbons (1583 - 1625) lardir. Angliyada ular asarlaridan birinchi klavir p'esalari to'plami «Parfeniya ili devichi godi pervoy muziki, kotoroe bila kogda - libo napechatana dlya verjinelya» 1611 yilda nashr qilingan edi. XVP asr ikkinchi yarmida verjinelchilik Genri Persell (1658 - 1695) ijodida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. U Angliya milliy operasi ijodkori, (eng yaxshi operasi – «Didona i Eney»), buyuk ijrochi, Vestminster abbatligi organchisi, va yana shuningdek klavir uchun asarlar muallifi hamdir. Persell tomonidan verjinel uchun bir qancha syuita va alohida p'esalar yaratilgan. XVSh

¹⁰Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

asrda frantsuz va italyan maktablari birinchi o`ringa chiqish uchun bir - biri bilan raqobatlashdilar.

Frantsiyada klavesinchilikning rivojlanishi tarixan frantsuz absolyut tizimi va san`atga kuchli ta`sir ko`rsatgan saroy maishiy hayoti bilan bog`liqdir. Adabiyot, tasviriy san`at, haykaltaroshlik, musiqa va teatr qirol hukmronligini maqtash va «Quyosh qiroli» (Lyudovik XIV) atrofida yorqin oreol yaratish uchun qo`llanildi. Ana shunday sharoitda san`atda galantli yoki rokoko uslubi tarqaldi. Bu uslub dunyoviy jamiyatning estetik qarashlarini yorqin ifodalar edi. Rokoko san`atiga miniatura formasi (shakli) va jimjimador bezaklar xos bo`lib, uning nomi ham ana shundan kelib chiqqan (rokoko fr. Racail - «chig`anoq»)¹¹

XVII asr oxiri XVIII asr boshida Frantsiya o`zining bir qancha taniqli klavesinchilari: Fransua Kuperen, Jan Fillip Ramo, Lui Dak, Fransua Dandrie nomlari bilan mashhur edi.

Fransua Kuperen ijodiy merosidagi eng yaxshi asarlar 1713, 1716, 1722 va 1730 yillar nashr qilingan to`rtta klavesin to`plamlaridir. Ular o`z ichiga 200 dan ortiq asarlarni oladi. Kuperen bular bilan bir qatorda torli va damli cholg`ular va klavir uchun ansambllar yozgan («Qirol kontsertlari» va boshq). Jan Filipp Ramo (1683 - 1764) uning klavir ijodiyoti xronologik jihatdan Kuperen asarlari bilan bir vaqtga to`g`ri kelsa ham u ancha yosh frantsuz klavesinchilar avlodiga mansubdir.

Uning bu asarlarida Kuperen ijodidan farq qiluvchi o`ziga xos tomonlari ham mavjuddir. Ramo (1706, 1724, 1734 yillarda) uchta klavesin p`esalar to`plamlari va bir qancha ansambllar yaratgan. Undan tashqari, Ramo shu yillari yarmarka komediyalari kabi demokratik janrga ham musiqa bastalaganligi aytib o`tish zarur.

Klavesin metodikasining eng samarali tamoyillaridan biri bu muskullarning ortiqcha taranglashi bilan kurashi edi. Ijro paytida harakat apparatining erkin bo`lishi haqida Kuperen bir necha marta aytib o`tgan va bu haqda Ramo ham juda ko`p eslatib o`tgan edi. Uning ijro paytida bilaklarni erkin holatda tutish kerakligi haqidagi eslatmalari hozirda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Ramo: - «bu mayinlik ana

¹¹ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

shunda barmoqlarga ham o'tadi, ularni mutlaqo erkinlashtirib, kerakli engillikni beradi» – degan edi. Ramoning yangi aplikatura usullarini qo'llashi, aynan birinchi barmoqni boshqa barmoqlar ostidan aylantirib qo'yishi, shak - shubhasiz unda ancha rivojlangan fakturaning rivojlanishidan darak berar edi. Bu usul har xil milliy maktablar o'rtasida, hatto Frantsiyada Germaniyadan oldinroq tarqala boshladi.

XVII asrning 30 yillarida «italyancha» deb aytiladigan yangi applikatura tamoyili Angliyada tarqala boshladi. Birinchi barmoqni boshqa barmoqlar ostidan aylantirib qo'yishi katta ahamiyatga ega bo'lgan yangilikka aylandi. U klavir texnikasi rivojini darhol oldinga siljitib yubordi. Shu bilan bir paytda bu usul ba'zi bir texnik qiyinchiliklarni engishga yordam berib, odatda ana shunday hollarda bo'ladigani kabi, o'z navbatida klavir fakturasi rivojiga ta'sir ko'rsatib, uning murakkablashishga olib keldi. Dastlab o'z davrining ko'zga ko'ringan virtuozlari qo'llagan yangi aplikatura tamoyillari endi, oddiy ijrochilar orasida ham qo'llanila boshladi. Birinchi barmoqni boshqa barmoqlar ostidan aylantirib qo'yish, faqat XIX asrdagina fortepiano pedagogikasida mustahkam o'rnanishi.

XVI - XVII asrlar musiqa san'ati rivojida Italiyaning roli juda kattadir. Uning rivoji Domeniko Skarlatti, Benedetto Marchello, Franchesko Durante va boshqa klavesinchilar nomlari bilan bog'liqdir.

Asosiy shaxs - Domenenko Skarlatti (1685 - 1757) bo'lib, mashhur opera kompozitori Aleksandro Skarlatti o'g'li edi. U Neopol shahrida tug'ilgan. Paskivini va Gasparinilardan ta'lim olgan. Hali yoshlik paytidayoq Skarlatti klavesinchi sifatida mashhur bo'ldi. U muvaffaqiyat bilan Gendel bilan klavirda ijro qilish bo'yicha bahslashgan va zamondoshlarni guvohlik berishicha undan qolishmagan. Skarlatti o'z ijodini faqat bitta janrga bag'ishlangan nisbatan kamyob kompozitorlardan biridir. Uning uchun bunday janr bir qismli klavesin sonatalari edi (500 dan ortiq) Kuy bezaklarini - melizimlarni tanlash ham Skarlattida o'ziga xos bo'lgan, u nafaqat grupetto kabi bezaklarni qo'llab qolmasdan balki forshlag, trellardan ham keng foydalanadi.

Skarlatti o'z sonatalaridagi bezaklarni o'qish bo'yicha hech qanday ko'rsatmalar qoldirmagan. U kompozitorlik va ijrochilik faoliyatlarini pedagoglik

faoliyati bilan qo`shib olib borgan.

Skarlattining eng buyuk shogirdlaridan biri, ispan kompozitori Antonio Soler edi (1729 - 1783). Soler sonatalari Skarlatti sonatalari kabi bir qismlidir. Ular ko`pchilik hollarda boy yunon xalq musiqasi bilan bog`liqdir.

1.3. I. S. Baxning klavir ijodiyoti

XVII - XVIII asrlarda Germaniyada professional musiqa san`ati o`zining ancha yuqori rivojlanish darajasiga etdi. Iogan Sebastyan Bax ijodida uyg`onish davri nemis rassomlari ijodida bo`lgani kabi milliy xarakter xususiyatlaridan anchasi o`z ifodasini topdi.

Kompozitor ijodida polifonik asarlar klavir merosining katta qismini egallaydi. Ularning katta ko`pchiligi, pedagogik maqsadda yozilgan bo`lib, Bu asarlarga o`qitishning boshlang`ich qismidan tortib, murakkabligi jihatidan qiyinchilikning oliy darajadagi cho`qqisigacha bo`lgan progressiv polifoniya maktabi sifatida qaralishi mumkin.

Kompozitorning eng engil p`esalari «Notnie tetradi Anni Magdaleni Bax» daftarlarida (bittasi 1722 ikkinchisi 1725 y.) to`plangandir. Bu daftarlar Baxning ikkinchi xotini N. M. Bax uchun to`plangan bo`lib, u klavesinda yaxshi chalar va yaxshi kuylar edi. Bu to`plam o`z ichiga bir qator klavir va vokal asarlarini oladi. Pedagogik amaliyotda keng tarqalgan «Notnie tetradi Anni Magdaleni Bax» daftari o`ziga yuqorida keltirilgan daftarlardagi asarlarning bir qismini asosan, raqs xarakteridagi p`esalar – menuet va polonezlarni oladi, xolos.

Polifonik jihatdan rivojlangan va mazmuni bo`yicha ancha boy to`plam «Malenkie prelyudii v fugi» hisoblanadi. Uning ichidagi asarlar Bax tomonidan turli davrlarda yaratilgandir. Ular keyinchalik, shunda ham Bax tomonidan emas, to`plam qilib birlashtirilgan. Birinchi bo`limda 12 ta kichik prelyudiya, ikkinchi bo`limda 6 ta prelyudiya bo`lib, qolganlari fugalardir.

Baxning prelyudiyalari ajoyib miniaturalar bo`lib, ular tinglovchi va ijrochilarni Baxning tipik obrazlari olamiga olib kiradi. Bax polifonik maktabining keyingi bosqichi 15 ta ikki ovozli va 15 ta 42 ovozli inventsiyalardir. (42 ovozli inventsiyalar

kompozitor tomonidan simfoniya deb atalgan).¹²

Bax polifonik klavir maktabining keyingi bosqichi «Teng temperatsiyalangan klavir» dir. Bu to'plam 1722 yil yozib tugallangan. Uning to'liq nomi «Xorosh temperirovanniy klavir, ili prelyudii i fugi, raspolojennie po vsem tonam i polutonam, ispolzuyushie kak tertsii majornie, tak i minornie... Napisani dlya polzi i upotrebleniya jadnoy do ucheniya muziki molodeji, osobenno je dlya preprovojeniya vremeni tex, kto uje iskusen v etoy oblasti». («Barcha ton va yarim tonlar bo'yicha joylashgan, major va minor tertsiyalari bir xil qo'llaniluvchi teng temperatsiyalangan klavir yoki prelyudiya va fugalari... Ular musiqa ilmiga chanqoq yoshlar foydasi va qo'llanishi yoki bu sohada ma'lum yutuqlarga erishganlar vaqtini to'ldirish maqsadida yozilgan») – deb ataladi.¹³

1744 yilda odatda «Teng temperatsiyalangan klavir» ning ikkinchi qismi deb aytiladigan 24 ta yangi prelyudiya va fugalari kitobi paydo bo'ldi. Bu to'plam o'z ichiga turli davrlarda yozilgan prelyudiyalar va fugalarni oladi. Musiqa san'atining buyuk namunalaridan biri bo'lgan «Teng temperatsiyalangan klavir» Bax badiiy obrazlarining o'ziga xos qobusnomasidir. Bax o'z to'plamini yaratishda shu davrgacha qo'llanilmagan tonalliklarni «Teng temperatsiyalangan klavir»da qo'llab shu jihatdan dadil olg'a qadam tashladi. Bu esa amaliyotga har bir oktava 12 ta teng yarim tonlarga bo'linadigan teng temperatsiyani kiritish sharofati bilan amalga oshdi. Bungacha cholg'u asboblari tabiiy soz deb ataladigan ko'p belgili tonallikka sozlanar va unda tovushlar ijro qilib bo'lmas darajada noaniq yangrar edi.

Bax «Teng temperatsiyalangan klavir» ni yaratib, ijrochilik amaliyotiga bir qator yangi tonalliklarni kiritdiki, bu o'z navbatida klavir san'atini yanada boyitdi.

Keyin u skripka uchun kontsertlar yoza boshladi va ularni klavirga moslashtirdi. Nihoyat, Bax o'z klavir kontsertlari ustida ish boshladi. Jami 12 ta jo'rnavozli klavir kontsertlari saqlangan bo'lib, ulardan 7 tasi bitta klavir, 3 tasi ikkita, 2 tasi uchta klavir uchun mo'ljallangan. Bular bilan bir qatorda Bax tomonidan

¹²Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

¹³ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

yakkaxon klavir uchun «Italyancha» original kontsert ham yaratilgan va bir qancha yot mualliflar kontserti klavir uchun moslashtirilgan.

Baxning klavir uchun yozilgan etuk va ko'zga ko'rinarli kontsertlaridan biri re minor kontsertidir. Ushbu re minor kontserti ilk vena klassiklari kontsertlaridan keskin farq qiladi.

Bax shogirdlari orasidan uning o'g'illari - Filipp va Emmanueldan tashqari kompozitor Vilgelm Fridman — ijrochilar Krebs, Kirnberglarni ko'rsatish mumkin.

II bob XVIII - XIX asr fortepiano san'ati

2.1. V. A. Motsart, L. Van Betxovenlarning fortepiano san'ati.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshi – fortepiano san'atining jadal rivojlanish davridir. Fortepiano cholg'usi keng tarqala boshlaydi. U sevimli kontsert cholg'usiga aylanadi. Fortepianoni uy sharoitida va musiqaga o'qitish uchun qo'llay boshlaydilar. O'zining qudratli fortesidan tortib, mayin pianogacha bo'lgan tovush tuslarini ifodalay olishi, xushohang kuyi, murakkab garmoniya va polifoniya va virtuozi sifatlari bilan pianino o'sha davr evropa musiqasi obrazlari doirasini ifodalash uchun o'ta mos keladigan cholg'uga aylandi.

Opera, vokal - xor, simfonik, umuman bir so'z bilan aytganda barcha boshqa cholg'u asboblari uchun yozilgan asarlar va insonlar ovozi o'zida nisbatan to'liq ifodalay olishi, fortepianoni musiqiy - oqartuv va o'quv maqsadlarida qo'llash uchun almashtirib bo'lmas cholg'uga aylandi. Yana shuning bilan bilan birga pianino, musiqachilar - havaskorlar ijroning boshlang'ich ko'nikmalarini engil o'zlashtira olishi va unga qiyin bo'lmagan asarlarni ijro qilish mumkinligi bilan o'ziga jalb qildi. Nihoyat, fortepiano insonga xos bo'lgan xislatlarni ifodalay olish xususiyatiga ega bo'lib, bu esa yangi davr ijodkori uchun eng muhimi edi. Bu cholg'uda ijro qiluvchiga skripkachilar yoki xonandaning akkomponiatorga, orkestr ishtirokchilarining dirijerga muhtojligi kabi bog'liqliqlar shart emas edi. Fortepianoga bo'lgan ommaviy qiziqish cholg'ular ishlab chiqarishni jadallashtirib yubordi. Ayniqsa XVSh –

XIX asrlar chegarasida Avstriyaning Shteyn, Shtreyxer Angliyadagi Brovud

fabrikalari ayniqsa katta shuhrat qozondilar. Vena va avstriya cholg`ulari mexanikasi o`sha davrda dunyodagi eng yaxshi mexanikalar nomi uchun raqobatlashdilar. «Shteyn» va «shtreyxerlar» ovozinig nafisligi, hashamdorligi bilan ajralib turar edilar. Ularning chuqur bo`lmagan va «engil» klaviaturasi jimjimador passajlarni ijro qilish uchun a`lo darajada moslashgan edi. O`sha davrlarda keng tarqalayotgan pullik kontsertlar ham paydo bo`layotganligi munosabati bilan Angliya fabrikalari o`z cholg`ularini katta zallarga mo`ljallab yasay boshladilar. Ingliz fortepianolari salobatli konstruksiyasi, to`yg`in, xushohang ovozi bilan ajralib turar edi. Ularning klaviaturasi nisbatan «qattiq» edi.

Undan keyin parij ustalari ham ko`zga ko`rina boshladilar. Ulardan bittasi S. Erar 1821 yili juft repetitsiyani yaratdi. Bu yangilik klavishni eng oxirigacha yubormasdan yana ovoz chiqarish imkonini berar edi. Bu esa ijroni yanada engillashtirdi. Ayniqsa, demper pedali (o`ng pedal) ning yaratilishi o`ta muhim kashfiyot bo`ldi. (uni A. Beyer yaratgan deb hisoblanadi 1781)¹⁴

1782 yilda J. Broud chap pedal, keyingi yilda ikkala pedalni bir vaqtda ishlatish uchun patent oldi. Demper pedali asarlar fakturasini, cholg`u tembrini, unda ijro qilish texnikasini butunlay o`zgartirib yubordi. Barmoq klavishdan olingandan keyin tovushlarning cho`zilib turishi, barcha registrnlarning bir paytda yangrashiga imkon berib, fonni shu davrgacha ko`rilmagan figuratsiya, akkordlar va fakturalarining boshqa turlari bilan to`ldirilishi uchun sharoit yaratdi. Tuzilmaning polifonlashtirilishiga imkon tug`dirdi. Tovushlar maydonning kengaytirilishi, basning kuydan ajratilishi uni obertonlar bilan boyitdi. Bu esa unga katta ohangdorlik va jonlilik baxsh etdi. O`ng va chap pedallar yordamida ba`zi cholg`u asboblari ovozigaga taqlid qilish yanada yaxshilandi. XIX asr boshiga kelib kontsert amaliyotidan qanotsimon fortepiano batamom o`rin oldi. Uy sharoitida to`g`ri burchakli pianinodan ko`proq qo`llanildi. Lira, sekreter, choy va ovqat stollari ko`rinishidagi cholg`ular ham uchrar edi. Joyni tejash maqsadida jirafa deb nomlanuvchi va tik turuvchi qanotsimon cholg`ular ham yaratildi. Keyinchalik ularni amaliyotda ko`proq

¹⁴Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

qulay bo'lgan pianinolar surib chiqardi.

XVIII - XIX asrlar bo'sag'asida improvizatsiya san'ati o'zining oldingi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa ham, kontsert amaliyotidan butunlay chiqib ketmagan edi. Bir odam qiyofasida ham kompozitor ham ijrochi namoyon bo'lishi shu davr musiqachisi uchun tipik holat bo'lsa ham, lekin sof ijrochilik faoliyatiga qiziqish sezilarli oshdi. Shu davr uchun xarakterli bo'lgan shaxs endi kompozitor - improvizator (badihachi) emas, balki, kompozitor - virtuoz, hatto virtuoz - kompozitor edi. Bu jihat juda muhim bo'lib, ko'p kompozitorlar faoliyatida virtouzlik ustivorlik qilib, ularning keyingi ijodida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ancha keng tinglovchilar auditoriyasiga mo'ljallangan pullik ommaviy kontsertlar amaliyotga yanada ko'proq kirib kela boshladi. Mamlakat ichidagi va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning yanada rivojlanishi, ancha uzoq joylarga va ko'p vaqtga kontsert safarlariga chiqish uchun kerakli sharoitlarni yaratdi. Ko'pgina cholg'uchilar va xonandalar «sayyor artistlar» hayot tarziga o'tdilar. Ba'zan biron bir mamlakatda ularga alohida izzat – ehtirom ko'rsatsalar, ular shu davlatda ancha vaqtgacha qolib ketganlar.

Kontsert faoliyati jadal rivojlangan va taniqli artistlar ko'proq o'tirib qolgan Evropa mamlakatlarida asta - sekin musiqiy ijrochilik markazlari shakllana boshladi. XVIII - XIX asr bo'sag'asida ulardan eng muhimlari London va Vena edi. Bu shaharlarda London va Vena fortepiano ijrochilik maktablari shakllandi. Musiqiy klasstsizmning muhim o'choqlaridan bo'lgan Avstriya ham fortepiano cholg'u ishlab chiqarishning ko'zga ko'rinarli markazi edi. Vena mexanikasi deb ataladigan (uning eng taniqli ustalari – Shteyn va Shtreyxerlar) fortepianolar Evropada sezilarli darajada tarqaldi. Ular zamonaviy royallardan tovushining pastiroq kuchi bilan ajralib turar va ularda klaviatuara ancha engil edi.

Ilk Vena klassiklarining fortepiano yozuvi o'zining shaffofligi bilan ajralib turar va bu jihatdan hali ular klavesin uslubi an'analari bilan bog'liq edi. Gaydn va Motsartlar etuklik davriga kelib, fortepiano shu darajada takomillashgan cholg'uga aylandiki, natijada u klavesinni surib chiqarish darajasiga etdi. Gaydn va Motsart tomonidan o'rnatilgan bayon qilish tipi asta sekin yangi mazmun bilan boyidi,

ko`rinishi o`zgardi.

Wolfgang Amadey Motsart (aniqrog'i - Iogann Xrisostom Teofil Sigizmund Wolfgang Amadey) (1756 - 1791) Motsart o`zining shu darajada nurli, yorqin va o`ta aqli tafakkurining turli ranglari bilan jilolanadigan asarlar yaratgan. Bunga uning fortepiano sonatalari va boshqa asarlari yaqqol misol bo`la oladi. Xususan, Motsartning fortepiano sonatalari 17 tadir. Ko`pchilik sonatalari ilk klassitsizm uchun tipik bo`lgan uch qismli shaklda yaratilgan, lekin ba`zan Motsart undan chekinishlar hal qilgan. Masalan, Lya major sonatasida birinchi qism sonata allegrosi bo`lmay, variatsiyalardan boshlagan, do minor sonatasi allegrosi oldidan esa fantaziya qo`shilgan.

Ba`zi bir sonatalar liriklik tipiga tortiladi. (№ 13 si – bemol – major). boshqalari nafis, hazilona (№ 10 do major) poetik «andante santable»li (fa - major) kabilar shular jumlasidandir. № 7 do major va № 9 re major sonatalari Mangeym taassurotlari ostida yozilgan bo`lib, ularda musiqiy mantiq ancha keng ko`lamda fikrlangandir. Bu sonatalarda mangeyemliklarning orkestr asarlari dinamikasi va simfoniyliligi sezilib turadi. Motsartning lya major sonatasi Parij xotiralari bilan bog`liqdir. Uning oxirgi qismi «Rondo alla turca» shartli ekzotika - o`sha davr frantsuz komik operalari ta`sirida yaratilgan. Motsart sonatalari orasida do minor sonatasi alohida o`rinda turadi.¹⁵

Motsartning fortepiano kontsertlari 27 ta bo`lib, ulardan 25 tasi orkestr bilan bitta klavir uchun, bittasi ikkita, bittasi uchta klavir va jo`rnavor uchun yozilgan. Bu asarlar kontsert janri tarixida muhim paytlaridan bo`ldi. Motsartning alohida tanilgan kontsertlari uchta bo`lib, ular № 23 lya major, № 24 do major va № 20 re minor kontsertlaridir. Ular kompozitor ijodi gullab yashnagan davrda yozilgan (80 - yillar o`rtalari).

Motsart sonata va kontsertlaridan tashqari, bir qator variatsiyalar, fantaziyalar, rondo va fortepiano uchun boshqa asarlar yaratgan. Umuman, Motsart fortepiano musiqasi XVIII asr klavir ijodiyoti rivojiga yakun yasadi.

Motsart nafaqat kompozitor, balki barcha klavishli cholg`u asboblarni mutloq

¹⁵ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

egallab, ularning mohir ijrochisi sifatida ham tarixiy rol o'ynadi.

Betxovenning fortepiano san'ati. L. V. Betxoven (1770 - 1827) XIX asr Vena maktabining buyuk vakili edi. Betxoven hali bolalik paytidanoq, nafaqat umumiy musiqiy iqtidor, improvizatsiya qila olish va yana shuningdek, fortepianoda ijro qilish qobiliyatlarini ham namoyon qildi.

Dastlabki davrlarda Betxovenning yaxshi o'qituvchilari bo'lmagan. Faqat u 11 yoshga to'lgan paytdagina ziyoli musiqachi va a'lo darajadagi pedagog X. G. Nefedan dars ola boshladi. Betxoven qisqa vaqt Motsartdan ham ta'lim oldi va Gaydn, Sal'eri, Albrextsberg va boshqalar rahbarligida kompozitsiya va musiqa nazariyasidan bilimlarini sayqallashtirdi.

Betxovenning ijrochilik faoliyati asosiy XVIII va XIX asr boshida Venada kechdi. O'sha paytlarda ommaviy (akademiyalar) kontsertlar Venada kam uchraydigan voqea edi. Shuning uchun ham Betxoven metsenat zodogonlar saroylarida ijro qilishiga to'g'ri kelar edi.

Umumiy qo'llaniladigan texnik formulalardan tashqari, Betxoven qo'lni tez almashtirish jarayonida ovoz kuchining izchillik bilan oshishi va pasayishiga erishish uchun qudratli ff ni chiqarish bo'yicha ham mashq qilar edi.

Legato va xushohang tovushlar chiqarish mashqlari ham alohida o'rinda turgan. Uning o'sha paytda hozirgi davrdagi kabi keng tarqalmagan «sirpanuvchan» applikaturani qo'llashi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Betxoven ijrosi o'zining badiiy mazmuni bilan o'ziga jalb qilar edi. Betxoven ijrochiligiga xos bo'lgan ijodiy xususiyat uning buyuk improvizatsiyalariga ham xos edi.

Betxoven fortepiano uchun bir umr asarlar yozgan. Ohanglarning asta -sekin kuchayib borishini ba'zan aktsientlar bilan almashtirgan. Uning asarlarida ko'p sonli va bir - biriga qarama - qarshi bo'lgan sf, sfp, fp, ffp kabi har xil xarakterdagi aktsientlar uchraydi. Bosqichma - bosqichli dinamika bilan bir qatorda tovushlarning asta - sekin kuchayishi va pasayishini ham qo'llagan. Betxoven fortepiano fakturasi bo'yicha o'zining ajoyib ustaligini namoyon qildi. Betxoven fortepiano kontsert uslubini ishlab chiqadi. Bu haqda 5 - kontsert etarli darajada aniq tasavvur beradi. U Klementiga o'xshab oktava tertsiya va boshqa juftlik notalarni izchillik ko'rinishida

qo'llaydi. Kontsert pianinochiligining keyingi evolutsiyasi nuqtai nazariyadan martellato ijro texnikasining Betxoven tomonidan rivojlantirilishi o'ta muhimdir. Betxoven fortepiano merosining muhim qismi 32 sonatadan iboratdir. Betxoven beshta fortepiano kontserti, fortepiano, xor, orkestr uchun kontsert fantaziyasini va 60 ga yaqin kichik fortepiano p'esalari bagatellar, ekosezlar, lendlerlar va menuetlar yozgan.

2.2. XVIII oxiri - XIX asr birinchi yarmi fortepiano san'ati

Kontsertchilik hayoti jadal rivojlanayotgan evropa shaharlarida ko'proq taniqli artistlar o'tirib qola boshladilar va u erda asta - sekin musiqa ijrochiligi madaniyati markazlari paydo bo'la boshladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, XVIII - XIX asr chegaralarida madaniyat markazlaridan eng asosiylari London va Vena shaharlari edi. Bu shaharlarda London va Vena fortepiano san'ati maktablari shakllandi. Ulardan birinchisiga italyan kompozitori va virtuozi Mutsio Klementi (1752 - 1832) tomonidan asos solindi. Zamondoshlari uni «forteplano otasi» deb atashar edi.¹⁶

Klementi 15 yoshdan boshlab Angliyada yashagan va ta'lim olgan. Tez orada u ijrochi, kompozitor va pedagog sifatida tanildi. U yana shuningdek, taniqli fabrikant va nota noshirchisi ham edi. Klementining dastlabki buyuk qo'llanmaviy etudlar to'plami «Stupen k Parnasu» («Gradus ad Parnassum») deb nomlangan va u 1817 yilda nashr qilingan. Bu to'plam o'z ichiga fugalar, kanonlar, skertso, kaprichcho, «dramatik sahnalar» va ko'p etudlarni olgan edi.

XVIII asr oxirida musiqachi Pleyllar oilasi juda tanilib ketdi. Pianinochi va kompozitor Ignats Pleyl(1752 - 1831) asli Avstriyalik bo'lib, Frantsiyada nota nashri va o'z davrida eng yaxshi hisoblangan fortepiano fabrikasiga asos soldi. (1807). Shopen odatda, shu fabrika cholg'ularida ijro qilardi. Ignats Pleyl o'g'li Kamill otasining savdo ishlarini davom ettirdi va «Pleyl zali» - kontsert zalini ochdi.

Vena fortepiano maktabining metodik tamoyillari rivoji uning yirik pedagogi va fortepiano etudlarining buyuk ustasi Karl Cherni (1791 - 1857) nomi bilan

¹⁶ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

bog'liqdir. Cherni chex musiqachisi oilasida tug'ildi. Dastlab otasidan keyin Betxovendan ta'lim oldi. U hali 15 yoshidanoq pedagog sifatida tanildi. Cherni har xil janrlarda – messalar, simfoniyalar, kontsertlar ijod qilgan. Cherni qoldirgan qo'llanmaviy fortepiano adabiyoti o'z ichiga har xil murakkablikdagi asarlarni oladi. Ular hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay qo'llanilib kelmoqda.

Chernining eng engil etudlari to'plamidan biri, Genrix Germer tahriridagi «Izbrannie etudi» kitobidir. Odatda, bu to'plamning davomi sifatida, amaliyotda 299 - ijod «Shkola beglosti» dan va 740 - ijod «Iskusstvo beglosti paltsev» (aniqrog'i «Iskusstvo zakonchennoy paltsevoy texniki») lardan keng foydalaniladi.¹⁷

Cherni etudlarining asosiy maqsadi, barmoqlar chopqirligini rivojlantirishdir. Ularda alohida e'tibor gammasimon tadqiqotlarga va uzun arpedjiolarga qaratiladi. Cherni gammalar ustida ishlashni virtuoslikni egallashning eng yaxshi vositasi deb qarardi. Shuning uchun ham, u gammalarini legato, staccato usullarida o'rganishni, metrik zarblar, crescendo, diminuendo va boshqalardan foydalanishni tavsiya qildi.

XIX asr ikkinchi yarmida nemis va frantsuz fortepiano san'ati. Yangi milliy maktablar rivojlanishi bilan bir qatorda Germaniya va Avstriya musiqa san'ati ham jadal rivojlandi. Bu davlatlarda badiiy madaniyat darajasi tez oshib bordi. Bu davr nemis musiqa madaniyatida romantik yo'nalishining rivojlanishi davom qildi (Vagner, List va ular atrofida yig'ilgan musiqachilar). Brams san'ati hammadan ko'proq tan olindi. Iogannes Bramsning (1833 - 1887) Germaniyada boshlanib, Avstriyada davom qilgan ijodiy faoliyati bu davlatlar musiqa madaniyati rivojida muhim rol o'ynadi.

XIX asr ikkinchi yarmida cholg'u musiqasining yirik ustalaridan biri bo'lgan Brams fortepiano musiqasining turli janrlarida samarali ijod qildi. Brams fortepiano uchun beshta variatsion turkum, «Variatsii na temu vengerskoy pesni», «Variatsii na temu Shumana», «Variatsii na sobstvennuyu temu», «Variatsii na temu Gendelya» va «Etudi dlya fortepiano», «Variatsii na temu Paganini» kabilarni yaratdi. U yana «Variatsii na temu Roberta Shumana Es - dur», valsar turkumini va mashhur

¹⁷ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

«Vengerskie tantsi» larni yaratgan.¹⁸

Frantsuz fortepiano adabiyotining rivoji shu davrda asosan, Kamil Sen - Sans va Frank nomlari bilan bog`liqdir. K. Sen - Sans – (1835 - 1921) XIX asr buyuk musiqa – tashviqotchilaridan biri milliy madaniyatning ilg`or vakili edi. Iqtidorli kompozitor ijrochilik va tashviqotchilik sohalarida ham ish olib bordi.

Sen - Sans hali XIX asr birinchi yarmidan boshlangan fortepiano va orkestr uchun milliy – xarakterli asarlar ijodi yo`nalishini davom qildirdi. Sen - Sansning eng yaxshi asarlaridan biri «Karnaval jivotnix» syuitasidir. (muallif uni «Zoologik fantaziya») deb atagan edi. U 1886 yilda yozilgan bo`lib, ikkita fortepiano, torli kvartet, fleytalar, fagot va ksilofon ijrosi uchun mo`ljallangan edi.

XVIII asr oxiri va XIX asr ikkinchi yarmida rus fortepiano san`ati. XIX asr ikkinchi yarmi rus fortepiano san`atining qudratli gullab - yashnash davri bo`ldi. Uning vakillari – kompozitorlar, ijrochilar va pedagoglar, nafaqat, milliy, balki dunyo musiqa madaniyatiga ham o`zlarining salmoqli hissalarini qo`shdilar. Rus fortepiano maktabi juda jadal rivojlandi. U XVIII asrda shakllana boshlab XIX asr 60 yillarida ijodiy etuklik davriga kirdi. Rossiya G`arbiy Evropadan farqli o`laroq rivojlangan klavir san`atidan bexabar edi. To`g`ri klavesin hali XVI asr oxiridanoq ma`lum bo`lgan bo`lsa ham biroq XVII asr davomida va XVIII asrning deyarli ko`proq qismida klavishli cholg`ular keng tarqalmagan edi. Ular faqat shoh saroyida va taniqli odamlar uyida chalinar edi.

O`sha davrda rus tinglovchilari mutlaqo vokal musiqasi bilan qiziqar edi. XIX asr ikkinchi yarmida fortepiano dvoryanlar uyining oddiy cholg`usiga aylandi. U asta - sekin har xil ziyolilar maishiy hayotiga ham kirib kela boshladi. Rossiyaga taniqli chet el artistlari: List, Talberg, Klara Shuman, Gerts va boshqalar tashrif buyura boshladilar. Bir butun rus pianinotchilari pleyadasi oldinga surildi, ayniqsa Glinka va Dargomijskiylar bilan bir qatorda Aleksandr Ivanovich Dyubyuk (1812-1897) Ivan Feodorovich Laskovskiy (1799 - 1855), Anton Avgustovich Gerke (1812 - 1870), Mariya Fedorovna Kalerji (Muxanovna) (1824 - 1861), Timofey Shpakovskiy (1829 - 1861) lar alohida ajralib turar edilar. Ular muvaffaqiyat bilan nafaqat vatanda, balki

¹⁸ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

chet ellarda ham kontsertlar berdilar.¹⁹

M. I. Glinkaning (1804 - 1857) fortepiano ijodiyoti eng milliy, yorqin va o'ziga xos edi. U fortepiano cholg'usini oliy darajada o'zlashtirgan va uning ijrosi oliy darajada shoirona va ilhombaxshlik bilan ajralib turar edi. O'zidan oldingilardan farqli o'laroq, Glinka variatsion janrni rivojlantirdi. Glinka nafaqat rus mavzulariga, masalan: «Sredi dolini rovnya», Alyabevning «Solovey» romansi kabilar, va yana shuningdek Motsart, Kerubini, Bellini mavzulariga ham variatsion turkumlar yaratdi.

Uning turkumlari bor yo'g'i 5 - 6 variatsiyadan iboratdir. Kompozitorning etuklik davri asarlarida muallif umumlashtiruvchi xarakter bergan xotimalar muhim dramaturgik rol o'ynaydi. 60 yillar davri bir qancha musiqachi – ma'rifatparvarlarni, aka - uka Rubinshteynlar, Balakirov, Serov va Stasovlarni etishtirib berdi.

Anton Grigorevich Rubinshteyn (1824 - 1894) u dastlab pianino chalishni onasidan, keyin ajoyib pedagog Aleksandr Ivanovich Villuan - dan (1804 -78) o'rgandi. Rubinshteyn fortepiano va orkestr uchun beshta kontsert yaratdi. Ulardan eng yaxshisi To'rtinchi g - moll kontsertidir. Bu repertuar asariga aylangan birinchi rus fortepiano kontsertidir. Unda Rubinshteynga xos bo'lgan ko'lamiylik, qo'shiqonalikning jadal rivoji kabilar o'z aksini topdi.

Kompozitor har xil janrlarda ko'plab fortepiano p'esalari yaratdi. «Melodiya» lar, barkarolalar, romanslar, valslar (ular orasida Es - dur «Vals – kapriz»i alohida ajralib turadi), prelyudiya va fugalar yaratdi. Ularning ko'pchiligi turkum va to'plamlarga birlashtirilgandir. «Kamenniy ostrov», «Natsionalnie tantsi», «Peterburgskie vechera», «Smes kostumirovanniy bal» (4 ta qo'l uchun) va boshqalar. Kompozitorning eng yaxshi asarlari uning «Izbrannie sochineniya dlya fortepiano» (K. N. Igumnov tahririda 2 tom) to'plamida jamlangan.²⁰

30 - yillar oxiridan A. Rubinshteynning kontsert faoliyati boshlanadi. Obrazlar doirasi va janr muhitining kengayishi bu davr fortepiano ijodiyoti uchun xosdir.

XIX asr ikkinchi yarmida badiiy madaniyatga boy Evropaning buyuk milliy

¹⁹ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

²⁰ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

arboblari ichida rus musiqasi rivoji muammolarini echgan bir guruh kompozitorlar alohida ajralib turadi. Bular, Balakirov, Musorgskiy, Borodin va Rimskiy - Karsakovdir. Ularning maqsadi, haqiqiy demokratik asosda, xalq qalbiga yo'l topa oladigan, uning orzu istaklari, u haqda butun haqiqatni o'zida aks ettira oladigan milliy san'atni yaratish edi.

Fortepiano musiqasi janriga hammadan ham ko'proq katta qobiliyat egasi, ko'p vaqt kontsert faoliyati bilan shug'ullangan Milliy Alekseevich Balakirov(1837 - 1910) ko'proq murojaat qilgan.

1830 yillar o'rtalarida Balakirov Peterburgga keladi va tez orada pianinochi va kompozitor sifatida ko'zga ko'rinadi. Uning birinchi mustaqil kontserti rus musiqasiga bag'ishlangan bo'lib, u o'z asarlari shular jumlasidan:

«Ivan Susanin» mavzusiga yozilgan fantaziyadan tashqari, Glinka Dargomijskiy, Laskovskiy p'esalarini ham ijro qiladi. Uning ijodida haqiqiy xalq mavzularida yozilgan kontsert fantaziyalari tajribasi juda muvaffaqiyatli chiqdi. 1869 yilda yozilgan «Islamey» («Vostochnaya fantaziya») nafaqat Balakirovning eng yaxshi asari, balki butun dunyo cholg'u musiqasi adabiyotining buyuk asariga aylandi.

M. P. Musorgskiyning (1839 - 1881) fortepiano san'ati sohasidagi buyuk iqtidori o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Uning fortepiano o'qituvchisi A. A. Gerke edi. Musorgskiy fortepiano cholg'usini mukammal darajada egallagan edi. Musorgskiy ijodida fortepiano asarlari kam darajada bo'lib, ularning katta ko'pchiligi janriy xarakterdagi dasturli p'esalari: «Vospominaniya detstvo», «Detskie igri kukolki», «Nyanya i ya», «Intermetstvo», «V derevne», «Sleza», «Shveya» va boshqalardir. Ular barchasi uning kapital fortepiano turkumi «Kartinki s vystavki» ning hamrohlaridir.²¹

XIX asrning 70 - 80 yillari fortepiano san'atida Petr Ilich Chaykovskiy (1840 - 1843) ijodi alohida o'rinda turadi. Chaykovskiy bir umr fortepiano uchun musiqalar yozgan. Chaykovskiy muntazam ravishda xalq hayoti mavzulariga murojaat qilgan va rus xalq hayoti sahnalarini ifodalagan. Bular uning ijodida rang - barang tarzda amalga oshirilgan. Bular kichik janriy chizgilar,

²¹ Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.

(«Bolalar albomi»dan «Mujik na garmonike igraet») va rivojlantirilgan («Dumka») kabi lirik epik tipdagi rapsodiyalar va xalq xursandchiligi kartinalari («Maslennitsa») va xalq mehnati obrazlari («Pesnya kosarya», «Jatva») kabilardir. Chaykovskiy ijodida b - moll kontseri (1875) buyuk o`rinlardan birida turadi. Chaykovskiy bir qancha fortepiano turkumlari va seriyalarini yaratdi. Ular orasida «Vremena goda» va «Detskiy albom» ayniqsa boshqalardan alohida ajralib turadi. «Vremena goda» p'esalari inson qalbi emotsional holatining boy dunyosini ifodalaydi. =

2.3. O`zbekistonda fortepano san'atining rivoji

2011 yil O`zbekiston Davlat konserovatoriyasi tashkil bo`lganiga 75 yil to`ladi (1936 - 2011). Birinchi musiqa oliy ta'lim muassasining ochilishi na faqat O`zbekiston, balki, Markaziy Osiyo va Qozg`iston mamlakatlarining madaniy hayotida muhim voqea bo`ldi, chunki Toshkent konservatoriyasi uzoq yillar davomida butun Markaziy Osiyo davlatlariga oliy malakali musiqachilarni tayyorlab keldi. Toshkent konservatoriyasining fortepiano fakulteti birinchilardan bo`lib ochilgan edi. Uning pedagogik va ijrochilik tamoillari Moskva va Leningrad konservatoriyalarining fortepiano ijrochiligi maktablarining eng yaxshi an'analari ta'sirida shakllandi. Bu ta'sir mezonini ko`p jihatdan shu kafedrada turli davrlarda faoliyat olib borgan ana shu maktablar pedagoglari belgilab bergan edilar.

Moskvalik taniqli pedagog, dotsent S. A. Kozlovskiy fortepino kafedrasiga birinchi rahbarlik qilgan edi. Keyinchalik turli davrlarda markaziy oliy ta'lim muassalari professorlari B. L. Volman, K. N. Mixaylov, A. V. Birmak va boshqalar kafedraga rahbarlik qildilar. Qoraqalpog`iston va O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi professor Ofeliya Yunusovna Yusupova uzoq yillar va hozirda ham kafedrani boshqarmoqda.²²

Toshkent konservatoriyasi pedagoglarining pedagogik mahorati oshishi va ta'lim jarayonining faollashuvida urush yillari O`zbekistonga ko`chirilgan leningrad

²²O`zbekiston davlat konservatoriyasi sayti

konservatoriyasi pedagoglari (professorlar L. N. Nikolaev, P. A. Serebryakov, S. N. Savshinskiy, N. E. Perelman, M. Ya. Xalfin va boshq) bilan olib borilgan ijodiy muloqotlarning ta'siri katta bo'ldi.

Keyinchalik ijodiy aloqalar yanada kengaydi. Moskva konservatoriyasi fortepiano kafedrasining ilg'or pedagoglari mustahkam kontaktklar paydo bo'ldi. Yakka kontsertlar, o'zining sinfi o'quvchilari kontsertlari bilan va maslahatlar olish uchun moskva konservatoriyasi professorlari: T. Nikolaeva, V. Gornostaeva, M. Voskresenskiy, S. Dorenskiy, L. Vlasenko, D. Bashkirov tashrif buyurdilar.

60 - yillar boshlari respublika mahalliy aholisi orasida fortepiano ijrochiligini ommaviylashtirishning yorqin misoli sifatida birinchi ijrochi milliy kadrlar etishib chiqqani bilan diqqatga sazovor bo'ldi. (X. F. Azimov (1954 y.), D. X. Doniyor - Xo'jaeva (1961 y.), D. Jahongirova, O. Yu. Yusupova (1962 y.), S. Zokirov (1963 g.)

1962 yilda milliy kadrlar vakillari uchun aspirantura ochiladi. Shu davrlarda respublikaning viloyat markazlari (Andijon, Jizzax, Guliston, Bekobod, Qarshi, Termiz, Urganch, Nukus) da ko'p sonli musiqa bilim yurtlari ochila boshlaydi. Bu esa professional kadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirib yubordi va bu muammoni echish darhol talab qilindi. Toshkent konservatoriyasida shu munosabat bilan sirtqi bo'lim ham ochildi.

Kadrlarni tayyorlash muammosi ta'lim jarayonini intensivlashtirishni talab qilar edi. Har bir kursda oldindan ko'zda tutilgan Bax, Betxoven asarlari, kantilenalar va yana shuningdek zamonaviy va virtuoz asarlarni ijro qilish bo'yicha majburiy dasturlar ishlab chiqildi.

1974 yildan beri ishlab turgan o'zbek kompozitorlari musiqasi festivali, har yili o'tkaziladigan sinf kechalari joriy qilindi. Bular barchasi talabalar pianinochilik mahoratining sezilarli darajada o'sishiga va ularni turli konkurslarda jalb qilishga olib keldi. Masalan: O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari o'rtasida 1960, 1964 va 1972 yillarda o'tkazilgan konkurslarda konservatoriyaning yosh talaba va pedagoglari: R. Kerer, V. Afanasev, D. Jahongirova, Yu. Kenzer, D. Magazinnik, N. Tsintsadze, D. Mirsagatovalar sovrinli o'rinlarga sazovor bo'ldilar. Bu estafetani esa 1990 yilda S. G'ofurova, B. Haqnazarova, E. Murskiy va U. Polvanovlar davom

qidirdilar.

Konservatoriya talabalari respublika pianinochilar konkurslarida qatnashib va sovrinli o`rinlarni egallab katta sahnaviy tajribalarni egalladilar. Ular orasida: D. Alyavi, O. Andreeva, S. Antonova, E. Alimov, S. Asabaeva, V. Gazarbekova, D. Jo`raeva, M. Gumarov, D. Jahongirova, Sh. Zokirov, T. Ignoyan, D. Iminova, Yu. Kenzer, Z. Karimova, N. Kulachenko, A. Leybkind, A. Leontev, V. Lisovskiy, G. Malikova, E. Mirqosimova, D. Mirsagatova, S. Sardaryan, Z. Safarova, M. Sultanova, D. Xudayberdieva, E. Xanin, A. Sharipovalar familiyalari bor.²³

Talabalarning ko`p sonli kontsertlar, festivallar, konkurslarda faol qatnashishi, repertuarning murakkablashishi va kengayishi – bular barchasi pianinochilikning yuqori darajaga chiqishi, texnik mahoratining oshishi va ijrochilik artistizmining o`shishiga yordam berdi.

Yosh pianinochilarning xalqaro maydonlarga chiqishi ularning ijrochilik mahorati oshganligida darak beradi: N. Axmedova – Santander (Ispaniya) dagi xalqaro konkurs, 1984. U. Polvonov – Porto (Portugaliya) dagi xalqaro konkurs, 1991. E. Mirqosimova –Kaltanissette (Italiya) dagi xalqaro konkurs, 1990. S. Gafurova –Italiyadagi xalqaro konkurslar: Marsala shahri (yakunlovchilar diplomi), 1994. Enna shahri (konkurs laureati), 1996. Milan shahri (yarim final diplomi), 1997. M. Fayzieva – Liguridagi xalqaro konkurs finali. Italiya, 1999. G. Alimova –Epinale (Portugaliya)dagi xalqaro konkurs, 1991. Porto (Portugaliya) dagi xalqaro konkurs, 1993. G. Jo`raeva –Ashxobod (Turkmaniston) dagi xalqaro konkurs, 1995. R. Abdunazarov – Ashxobod (Turkmaniston) dagi xalqaro konkurs, 1995. M. Maqsudov – Olma –ota shahridagi Markaziy Osiyo, Qozog`iston va Ozarbayjon mamlakatlari konkursi, 2000. Ostonadagi I xalqaro konkurs (Qozog`iston), 2001. R. Abdullaev – Kontsertium Marko - Polo (Gretsiya), 2000. A. Xaydarova – 21 «Prokofev, Bartok, Kabalevskiy» xalqaro konkursi. SShA, 2001. I. Gulzarova – Chimkentdagi IV pianinochilar xalqaro konkursi (Qozog`iston), 2001. A. Vishnevskiy – IV Chimkentdagi IV pianinochilar xalqaro konkursi (Qozog`iston), 2001. E. Kotlibulatova –N. Rubinshteyn nomidagi xalqaro konkurs (Frantsiya), 2004.

²³O`zbekiston davlat konservatoriyasi sayti

F. Shopen nomidagi II xalqaro pianinotchilar konkursi (Malayziya, 2006). G. Shokirova – A. Vaydeman nomidagi 50 - xalqaro pianinotchilar konkursi SShA, 2000.²⁴

Kafedra xodimlarining piano kontsertchiligi geografiyasi ham sezilarli darajada kengaydi. O'zining pianinotchilik mahoratini chet ellarda namoyish qilgan pianinotchi fortepiano mutaxassisligi kafedrasi mudiri Ofeliya Yusupovadir. (Polsha, Kanada, Mongoliya, Tailand, Finlyandiya, FRG, AQSh, Turkiya va boshq.). E. Mirqosimova O'zbekiston shaharlari bo'ylab (Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz) va Belorussiya, Moldaviya, Germaniya, Turkiya, Tailandlarda o'zining murakkab dasturlari bilan muvaffaqiyatli chiqishlar qildi. S. G'afurovaning chiqishlari MDX va chet ellarda (Frantsiya, Germaniya, Angliya, Turkiya, janubiy Koreya) ilq kutib olindi. A. Sharipova Kubada bo'lib o'tgan XI – Butun jahon yoshlar festivalida qatnashdi, keyinchalik u Frantsiya, Turkiya, Gretsiya, Portugaliya, Bolgariya va qardosh respublikalarda chiqishlar qildi.

Kafedraning kontsert faoliyati kattadir. Buning isboti sifatida o'zining ko'lami bo'yicha juda katta bo'lgan muzika festivallarini ko'rsatish mumkin: 1999 yilda o'tkazilgan «Venok Shopenu», 2000 yilda «Prinoshenie Baxu», 2002 yilda «Prometey - festival» - 2003 yilda o'tkazilgan «Raxmaninovskie vechera», 2006 yilda o'tkazilgan «Prinoshenie Motsartu» muzika festivallari shular jumlasidandir. Shunisi e'tiborga sazovorki, bu tadbirlar doirasiga na faqat kafedra o'qituvchilari, ularning stajyor – assisentlari va boshqa kafedra o'qituvchilari, va yana shuningdek Hamza nomidagi bilim yurti, V. Uspenskiy nomidagi maxsus maktab jamoalari, Milliy simfonik orkestr, O'zbekiston konservatoriyasi teatr - studiya simfonik orkestri, konservatoriyaning talabalar xori ham ham jalb qilindi. Har bir festival ijro qilinayotgan kompozitorning katta ijodiy panoramasini taqdim qildi. Masalan, «Venok Shopenu» festivali mobaynida uning barcha skertso, balladalari, sonatalari, kontsertlari, ko'p sonli noktyurnlari, polonezlari, mazurkalari, valslari, etudlari va boshqa musiqa shakllari va yana shuningdek kamer musiqasi ijro qilindi. «Prometey -

²⁴ O'zbekiston davlat konservatoriyasi sayti

festival» davrida esa simfonik va kamer musiqasi bilan bir qatorda barcha fortepiano kontsertlari: №1 or. 15, №2 or.19, №3 or. 37, №4 or. 58, №5 or. 73, fortepiano, skripka, violonchel va orkestr uchun uchlik kontsert or. 56, Betxovenning «Patetik» or. 13, «Lunnaya» № 2 or. 27, «Aurora» or. 53, «Appassionata» or. 57. fortepiano sonatalari ijro qilindi.²⁵

T. M. Kotlyarevskaya metodik tadqiqotlar olib borish sohasida birinchilardan bo'ldi. Uning tajribalari texnik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan: «Texnika kak odno iz vajneyshix usloviy ispolnitelstva», «Texnika, kak komponent ispolnitelstva», «K voprosu o paltsevoy beglosti» va boshqa maqolalarida o'z aksini topdi. Keyinchalik metodik tadqiqotlarning faollashuviga A. V. Birmak faoliyati ham yordam berdi. Uning zamonaviy fan yutuqlari, Stanislavskiyning tizimi qoidalari va Pavlovning reflekslar haqidagi ta'limoti bilan bog'langan, pedagogika va ijrochilikning ilg'or ustalarining katta pedagogik tajribalari umumlash-tirilgan ma'ruzalar turkumi talabalar va pedagoglar orasida katta muvaffaqiyat qozondi. Keyingi yillarda kafedraning ilmiy metodik faoliyati turli yo'nalishlarda davom qildi. Ulardan biri – O'zbekiston kompozitorlari ijodini o'rganish muammolari edi. Kafedra o'qituvchilari tomonidan G. Mushel, S. Jalil, D. Saydaminova, E. Salixov, N. Zokirov, S. Qarshi - Xo'ja, B. Gienko, D. Yanov - Yanovskiy, A. Berlin, F. Yanov - Yanovskiy, A. Litvinov, R. Abdullaev, A. Malaxov, A. Mansurov asarlari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Shunday qilib maxsus fortepiano kafedrasining barcha faoliyatlari sohalari bo'yicha ijobiy olg'a siljishlar bo'lganligini xulosa qilib ta'kidlash mumkin. O'tgan etmish yil davomida kafedradan 1800 tadan ko'proq bitiruvchilar chiqqan. Birinchi mutaxassislar 1940 yilda bitirib chiqqanligini ham eslatib o'tish ham ortiqcha bo'lmaydi. O'sha yili konservatoriyaning bitta pianinichi – I. F. Kalnitskaya (A. G. Goldberg sinfi) bitirib chiqqan edi.²⁶

Hozirgi davrda Toshkent davlat konservatoriyasi fortepiano kafedrasini bitiruvchilari bilan respublikaning barcha musiqa ta'limi muassasalari

²⁵O'zbekiston davlat konservatoriyasi sayti.

²⁶O'zbekiston davlat konservatoriyasi sayti

ta'minlangandir. Ular na faqat respublikamiz, balki O'zbekistondan tashqarida, dunyoning ko'p davlatlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'DK fortepiano kafedrası pianinotchilarining katta guruhi xalqaro konkurslar laureati bo'ldilar. Ko'pgina bitiruvchilar chet ellarda konkurslardan o'tib, Evropa va Amerikaning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirmoqdalar va o'qishni bitirgandan keyin o'sha erning o'zida ishga taklif qilinmoqdalar. Masalan G. Alimova, U. Polvonov, S. Yudenich kabilar chet mamlakatlarda ishlab, O'zbekiston fortepiano san'atini yutuqlarini yanada boyitmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish zarurki, o'tgan o'n yilliklar mobaynida fortepiano kafedrası o'qituvchilari erishilgan muvafaqiyatlar bilan cheklanib qolmasdan, o'z mahoratlarini barcha faoliyat sohalarida sayqallashtirib, yanada katta kuch - g'ayrat bilan mehnat qilmoqdalar. Evropa fortepiano maktabining eng yaxshi an'alarini o'zlashtira borib, o'zbek fortepiano ijrochiligiga O'zbekistonning o'ziga xos badiiy madaniyati ta'sirini ta'kidlash va tasdiqlash zarur. Aritexura yodgorliklari, she'riyat, muzika, tabiat go'zalliklari va hatto iqlimning o'ziga xos xususiyatlari – bular barchasi biz xoxlaymizmi, yo'qmi, o'zining betakror aurasini, o'zining jilvalarini va fortepiano ijrochiligining milliy xususiyatlarini yaratadi.

Shunday qilib, O'zbekiston fortepiano ijrochiligi maktabi o'ziga xos xususiyatga ega noyob hodisalardan biri bo'lib, bu – evropa mumtoz musiqa an'analari va o'zbek milliy musiqa merosining tabiiy chatishmasi mahsulidir.

Xulosa

Cholg`u ijrochiligi musiqa san`ati sohasida eng ommalashgan turlardandir. Har bir xalqning o`z milliy cholg`u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg`u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg`ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg`usi o`zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o`rin tutadi. Forteplano cholg`usining uzoq ajdodi - organning paydo bo`lish tarixi eramizdan oldingi III asrlarga borib taqaladi. Forteplano cholg`usi O`zbekistonga XX asr boshlarida kirib kelgan va shu asr birinchi yarmi oxiridan boshlab mamlakatimizda forteplano san`ati ommaviy ravishda jadal rivojlana boshlagan.

Toshkent davlat konservatoriyasining (hozirda O`zbekiston Davlat konservatoriyasi) ochilishi na faqat O`zbekiston, balki, Markaziy Osiyo va Qozg`iston mamlakatlari madaniy hayotida muhim voqea bo`ldi, chunki Toshkent konservatoriyasi uzoq yillar davomida butun Markaziy Osiyo davlatlariga oliy malakali musiqachilarni tayyorlab keldi.

Hozirgi davrda oliy ta`lim dargohlari o`quv dasturiga «Cholg`u ijrochiligi», Pedagogika kollejlari musiqa yo`nalishi, musiqa va san`at kollejlari va bolalar musiqa va san`at maktablari o`quv dasturlariga «Forteplano sinfi» mashg`ulotlari kiritilgan. «Cholg`u ijrochiligi» va «Forteplano sinfi» fani kasbiy tayyorgarlikni nazariy hamda amaliy mustahkamlaydigan tarkibiy qism hisoblanadi. Fanning asosiy vazifasi o`quvchilarga o`z ishiga ongli munosabatda bo`lish, shu kasbiga qiziqish uyg`otish, ijrochilik tajribalarini umumlashtira olish, uslubiy adabiyot va o`quv qo`llanmalar bilan ishlay olish, bolalar musiqa va san`at maktablari o`quv repertuarlarini o`zlashtirish kabi bilim va ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan. Bu mashg`ulotlarda talaba - o`quvchilar o`zbek kompozitorlarining asarlari bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlar kompozitorlarining turli janrlarda yaratgan asarlarini ham o`rganadilar va ijro qiladilar. Bo`lg`usi pianinoning kasbiy tomonidan rivojlanishidagi muhim tomonlaridan biri cholg`u asbobida ijro qilish jarayonida shakllanadi. Shu bilan bir paytda o`zi o`rganayotgan cholg`u asbobi va uning kelib chiqish tarixi haqida etarli darajada ma`lumotlarga ega bo`lish juda muhimdir

Afsuski, oliy ta'lim dargohlari, pedagogika kollejlari musiqa yo`nalishida, musiqa va san'at kollejlari va bolalar musiqa va san'at maktablari talaba – o`quvchilari klavir, klavikord, klavitsimbal, klavesin va fortepiano cholg`ularining kelib chiqish tarixi haqida ko`pchilik hollarda butunlay ma'lumotlarga ega emaslar.

Shu sababli oliy ta'lim dargohlari, pedagogika kollejlari musiqa yo`nalishida, musiqa va san'at kollejlari va bolalar musiqa va san'at maktablari o`qituvchilari oldida fortepiano san'ati tarixi haqida ma'lumotlar berishning dolzarbligi yanada ortadi.

Adabiyotlar

- 1.Karimov I. A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir.T., 2007 y.
- 2.Abort G. V.A. Motsart. M., 1983-85
- 3.Alekseev A. Istoriya fortepiannogo iskusstva. M., 1967
- 4.Alekseev A. Klavirnoe iskusstvo. M.-L., 19525.
- 5.Alekseev A. Russkaya fortepiannaya muzika. M., 1963
- 6.Alshvang A. Lyudvig van Betxoven. M., 1977
- 7.Bakeeva N. Organ. M., 1977
- 8.Belza I. Friderik Frantsishek Shopen. M., 1960
9. Druskin M. Klavirnaya muzika. L., 1960
- 10.Jitomirskiy D. Robert Shuman. M., 1964
- 11.Zimin P. Istoriya fortepiano i ego predshestvennikov. M., 1968
- 12.Ivanov O. N. «Istoriya fortepiannogo iskusstva». Tashkent.2008.
- 13.Levasheva O. Edvard Grig. M., 1962
- 14.Livanova T. Istoriya Zapadnoevropeyskoy muziki do 1789 goda.M., 1982-83
- 15.Milshteyn Ya. F.List. M.,1956
- 16.Muzalevskiy V. Russkoe fortepiannoe iskusstvo. L., 1961
- 17.Muzikalnaya estetika Zapadnoy Evropi XVII - pervoy polovini XVIII veka. M., 1983
- 18.O`zbekiston davlat konservatoriyasi sayti
- 19.Shveytser A. Iogann Sebastyan Bax. M.,2002
- 20.Shonberg G. Velikie pianisti. M., 2003
- 21.Tsareva E. Iogannes Brams. M., 1986